БОТАНИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ *CINANCHUM SIBIRICUM* WILLD., В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Бабажанова У., Ажиев А.Б.*
Нукусский государственный педагогический институт
Студентка 1-курса направления биология, *доцент кафедры методика преподавания ботаники, экологии

Цинанхум (ластовень) острый (лат. *Cynanchum sibiricum*) — вид двудольных растений рода Цинанхум (*Cynanchum*) семейства Кутровые (Apocynaceae). Таксономическое название было опубликовано шведским систематиком Карлом Линнеем в 1753 году.

ЦИНАНХУМ вьющийся каучуконос из сем. ластовневых с широким регионом распространения. Большое число форм, среди которых песчаная содержит в листьях до 7 % каучука (и 6-8 % смол). Каучук в виде капель в зеленых клетках, легко извлекается. Размножается цинанхум семенами. Хорошо растет на песчаной почве при достаточно высоком весеннем уровне грунтовой воды. Тычины или другие опоры для завивания обеспечивают большую растительную массу.

Опытов промышленного разведения цинанхума нет.

Растение-космополит, широко распространённое во многих странах Европы, в северной Африке и Азии.

Растёт по берегам рек, на каменистых участках, лугах, в степях и на пустырях. Светолюбивое, теневыносливое растение; мезофит (либо ксерофит), эвтроф.

Ботаническое описание

Многолетняя травянистая лиана. Число хромосом — 2n=22. Побеги ползучие; молодые побеги опушённые. Листья простые, яйцевидной либо треугольной формы, с гладким краем и острой верхушкой, размещены супротивно по длине стебля. Содержат токсины, ядовитые для животных (в частности, для собак).

Цветки мелкие (размером до 2 см), белого или светло-розового цвета, пятилепестковые, собраны в зонтиковидное или щитковидное соцветие.

Плод состоит из двух листовок.

Применение

Применение в народной медицине:

Из-за высокого содержания алкалоидов растение является сильнодействующим и даже ядовитым. При приёме внутрь оно вызывает выраженный рвотный, слабительный и диуретический эффекты. Тем не менее, в небольших концентрациях цинанхум способен оказывать лекарственное действие.

Цинанхум применяют при алкогольной интоксикации и пищевом отравлении, когда необходимо ускорить выведение из организма вредных веществ. Также трава цинанхума оказывается полезна при большом скоплении жидкости, уменьшает отёки, помогает при водянке. Вымывает соли,

способствует выведению камней из тканей почек и печени. Усиливает потенцию мужчин, либидо женщин. Регулирует менструальный цикл.

Также имеет антигельминтное действие; регулирует частоту сердечных сокращений, нормализует артериальное давление.

Наружно применяется как антивирусное, противогрибковое, антибактериальное средство. Дезинфицирует раны, обеззараживает поверхности, снимает боль. Сок используется для сведения бородавок.

Иногда цинанхум принимается внутрь как препарат, лечащий серьёзные инфекционные заболевания – малярию, дизентерию, лихорадку. В небольших дозах тонизирует и укрепляет все ткани и органы.

Способы применения:

В природном виде: свежую зелень цинанхума промыть в холодной воде и измельчить. Обернуть в марлю и прикладывать к ранам.

Сок: свежесрезанную траву промыть в холодной воде, измельчить и отжать сок. Применять его наружно, нанося на бородавки и папилломы. В концентрации 4 капли на 100 мл сок употребляется внутрь в виде слабительного.

Отвар: 15 грамм травы цинанхума вываривать в литре воды 5 минут. Отфильтровать. Выпивать по 100 мл. в сутки, внимательно следя за собственным самочувствием.

Противопоказания:

Растение ядовито. Крайне не рекомендуется женщинам во время беременности и кормления грудью; детям до 16 лет; людям с почечной и печёночной недостаточностью; при наличии аллергических реакций на растение.

Внесён в Красную книгу Республики Татарстан (Россия)

Литература

1. Воловник С. В. О биоценотических связях между цинанхумом острым (Cynanchum acutum L.) и некоторыми насекомыми // Журнал общей биологии, 1982, т. 43, № 5, с. 729—731.
2. https://openfito.ru/vids/vid/33416
3. https://www.plantarium.ru/lang/en/page/view/item/12318.html

АЛКАЛОИД САҚЛОВЧИ ОҚ ҚУНДУЗНИНГ *(ECHINOPS RITRO L.)* ДОРИВОР ХУСУСИЯТЛАРИ.

Кутлымуратова Г.А., Қайипова Р.Т.
Нукус давлат педагогика институти Ботаника, экология ва ўни ўқитиш методикаси кафедраси катта ўқитувчиси
Нукус давлат педагогика институти 1-курс магистранти

Оқ қундузнинг *(Echinops ritro L.)* - бўйи 120-150 см атрофида бўлади. Барглари четидан ўртасига қараб кўпгина кесилган, баргнинг учида ва бўлакчаларнинг учида тиканакли, тепа томони яшил, ости майда оқ тукли. Гуллари оч ҳаво ёки оқ ранг, учлари тиканчали. Меваси уруғдон, учида тукли кокиллари бор.

Оқ қундуз – бу тиканакли шарсимон ҳаво ва кўк рангли гултўплари бўлган кўп йиллик ўтчил ўсимлик. Лотинча эхинопс номи “типратиканга ўхшаш” деб таржима қилинади. Табиатда унинг 100 дан зиёд тури мавжуд. Улардан 7 тури маданий ҳолда етиштирилади. Улардан энг машҳурлари шарбошли оқ қундуз ва оқ қундуз.

Оқ қундузлар ўзларининг кўкимтир тукланган барглари ва шарбошли тиканли гултўплари туфайли манзарали ўсимлик сифатида қадрланади. Бу Мураккабгуллилар (*Asteraceae*) оиласига мансуб бўйи 50-70 см кўп йиллик ўтчил ўсимлик. У Ўрта Осиё ва Сибирнинг чўл ва даштларида ўсади. Тиббиий мақсадда унинг мевалари йиғилади [1].

Оқ қундузни экиб кўпайтириш учун очиқ қуёшли жойларни танлаш керак. Оқ қундуз тупроққа талабчан эмас. Аммо тупроққа оҳак қўшган маъқул. Ер ости сувлари юза бўлган ерлар бу ўсимликка тўғри келмайди.

Манзарали ўсимлик сифатида экилганда уни тўп-тўп қилиб ёки гулининг ранги кескин фарқ қиладиган бошқа ўсимликлар билан биргаликда доналаб эккан маъқул. Очиқ майдонда тўп қилиб йирик турларидан экилганда ажойиб манзара ҳосил бўлади. Кўп сонли металл тусли ҳаво рангли бош шаклли гуллар ва кулранг барглар бадиий манзараларни яратишга имконият ҳосил қилади. Пояни бу мақсадда кесилганда бу ишни гуллаш босқичининг бошида бажарган маъқул, сабаби кейинроқ кесилганда гуллар тўкилиб кетади.

Ундан ташқари оқ қундуз асал берувчи ўсимлик. Шунингдек ундан халқ табобатида фойдаланилади. XIX асрнинг охирида оқ қундузнинг баъзи турларидан марказий асаб тизимига қўзғатувчи таъсир кўрсатадиган эхинопсин алколоиди ажратиб олинган. Кейинчалик ундан шу номли дори воситаси олина бошланган. У бирон жой кесилганда, паралич, плексит ва радикулитларда қўлланилган. Оқ қундуз мевалари гипертония ва атеросклерозда қўлланиладиган мураккаб йиғмалар таркибига киради.

Оқ қундуз мевасида кўп миқдорда мой ва бошқа органик моддалар сақланади. Унда сақланадиган эхинопсин миқдори 2% га етади.

Оқ қундуздан олинган дори воситаларнинг марказий асаб тизимига қўзғатувчи таъсирга эгалиги аниқланган. Бериладиган доза оширилганда аксинча ҳайвонларнинг аҳволи оғирлашади, клиник-тоник томир тортиши кузатилади. Бу ходиса стрихнин берилганда пайдо бўладиган томир тортиш ҳолатига ўхшаб кетади. Ўсимлик настойкаси таъсирида изоляция қилинган органларниг томирлари кенгайиши, қон-томир тизимининг фаолиятига таъсир (юрак уриши амплитудаси кўпаяди, унинг ритми яхшиланади) қилади.

Ўсимликнинг биологик фаоллиги шу ўсимликдан ажратиб олинган хос алколоид эхинопсинни фармокологик тадқиқ қилинишига асос бўлган. Эхинопсин нитратини тадқиқ қилиш шуни кўрсатдики, унинг оз дозаси ҳам ҳайвонларни қўзғатади, улар серҳаракат, бесарамжон бўлиб қолади, мушакларининг тонуси ошади, оғриқларга бўлган реакциялари кучаяди. Дозалар оширилганда ҳайвонларда эзилганлик, маюслик ҳолати ва тоник томир тортишувлар пайдо бўлади. Унинг мевасидан 1.5-2.4% (қуруқ массадан ҳисоблаганда) эхинопсин олинади. Эхинопсин олиш учун оқ қундузнинг бошқа турлари ҳам таклиф қилинган.

Тиббиётда илгари бу алкалоиднинг нитрати инъекция сифатида ишлатилган аммо ҳозир рухсат этилган дори воситалари рўйхатидан

чиқарилган. Халқ табобатида ҳозир ҳам уруғларидан олинган қайнатма ва меваларидан олинган настойка (спиртли дамлама) лари ишлатилади. Улар ёрдамида бош оғриғи, эпилептик хуружлар, парезлар, паришохотир склероз, полиомиэлит, нурланишнинг сурункали оқибатларини даволашда фойдаланилади [2].

Оқ қундуз уруғларида 28% гача ёғ бор. У баъзи тери касалликларни даволашда ишлатилади. Хитой табобатида кенг баргли оқ қундуз илдизларидан тери касалликлари, гельминтозлар, яллиғланишга қарши ва қон тўхтатувчи восита сифатида ишлатилади [3].

Ниҳоят оқ қундуз асал берувчи ўсимлик сифатида тан олинган, уларни асаларичилар бўш ётган ерларда ва йўл четларида экишади.

Адабиётлар

1.Кутлымуратова Г.А. Қорақалпоғистон шароитида истиқболли доривор ўсимликларнинг интродукцияси ва биоэкологик хусусиятлари: Автореф. б.ф.ф.д (PhD).- Нукус.: 2021

2. Б.Ё.Тўхтаев, Т.Х.Махкамов, А.А.Тўлаганов, А.И. Маматкаримов. Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом ашёсини тайёрлаш бўйича Йўриқнома Тошкент – 2015

3.Атлас лекарственных растений СССР. М., Медгиз, 1962.

ЗАСОЛЕНИЕ И ДЕГРАДАЦИИ ПОЧВ АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАШЕГО ВРЕМЕНИ

Шукурлаев М.Н.
Каракалпакский государственный университет

Земля является одним из важнейших источников жизнеобеспечения человечества, она же является основным средством производства. Комплекс экологических опасностей и проблем играет важную роль в определении основных стратегических направлений обеспечения экологической безопасности, предотвращения и устранения экологических угроз [1].

В связи с ростом антропогенных нагрузок, деградация почв является одной из самых актуальных и требующих незамедлительного вмешательства проблем нашего времени. Засоление почв выделено, как один из наиболее существенных типов деградации почв с учетом реальной встречаемости и природно-хозяйственной значимости последствий. Засоление почв приводит к физической деградации земель и дальнейшему выводу их из сельскохозяйственного использования. В свою очередь физическая деградация почв служит спусковым механизмом для большого количества природных катастроф. Повсеместное увеличение площадей засоленных почв и сокращение вследствие этого пахотных угодий вызывает необходимость экологической оценки засоленных почв с точки зрения их экологического состояния. С этой точки зрения охрана плодородия почв и его увеличение является одной из основных экологических проблем. При использовании почвы, влияющие, на нее некоторые антропогенные процессы способствуют, снижению ее

плодородия, в связи, с чем необходимо проводить мероприятия, направленные на их устранение. Таким образом, вопросы, связанные с взаимосвязью физических свойств почв с интенсивностью почвенно-биологических процессов, занимают важное, но недостаточное место в научных исследованиях.

Почва выполняет большое количество экологических и социально-экономических функций, в том числе способность удалять из окружающей среды загрязнители путем фильтрации и адсорбции. Эта функция, а также способность почвы к самовосстановлению означают, что ущерб остается незаметным, пока не переходит в сильно выраженную стадию. Следуя принципу соблюдения предосторожности и принимая во внимание медленную скорость почвообразования, почва может рассматриваться как ограниченный и не возобновляемый ресурс в масштабе от 50 до 100 лет.

Одним из наиболее существенных факторов, влияющих на качество почв, являются методы возделывания, применяемые в сельском хозяйстве. Потери органических веществ и последующая утрата плодородности часто являются следствием непоследовательной практики землепользования (например, глубокая вспашка и монокультура), в то время как тяжелая техника разрушает структуру почвы вследствие ее сжатия [3].

Основным негативным воздействием этих факторов является сокращение буферных свойств, т. е. способности почвы впитывать загрязняющие вещества. Многие процессы деградации оказывают непосредственное воздействие на глобальный круговорот углерода, в особенности вследствие сокращения количества органических веществ в почве и выделения двуокиси углерода в атмосферу.

Воздействие засоления на производство сельскохозяйственной продукции тесно связано с нарушением процессов поглощении азота и ухудшением роста и развития растений. Нарушение биологической активности почв приводит к потере источников пищи для сообществ микрофлоры почвы, которые являются инженерами экосистем. Существуют значительные риски и экологический стресс для пахотных угодий, связанные с воздействием заброшенных земель (abandoned lands) на здоровье почв и состояние окружающей среды, а увеличение солевой нагрузки ухудшает услуги агроэкосистем и снижает доходы фермеров и землепользователей. Наиболее значительным эффектом засоления в засушливых сельскохозяйственных ландшафтах является потеря естественной растительности и лесов. При близком уровне залегания грунтовых вод засоление значительно ухудшает способность почв впитывать поверхностные осадки, что вызывает значительные риски наводнений и подтопления нижележащих территорий. Это может привести к повреждению дорог, плотин, сельскохозяйственных угодий и разрушению сооружений и наблюдательной сети.

Соли повреждают инфраструктуру, включая дороги, здания и другие социальные объекты. При близком уровне грунтовых вод до 1-2 метров от поверхности дорог засоление вызывает значительное сокращение продолжительности функционирования дорожных покрытий. Соли также

разъедают и разрушают битумные, бетонные и кирпичные конструкции. Засоление почв существенно ограничивает производство сельскохозяйственных культур и, следовательно, оказывает негативное воздействие на продовольственную безопасность. Потери урожайности в засушливых районах из-за засоленности почвы достигают от 18 - 26% до 43% [2], что вызывает снижение средств существования населения и повышает его уязвимость к деградации земли и изменению климата.

Использованная литература:

1. Тлеумуратова Б.С. Влияние солепылепереноса на осадкообразование в Приаралье // Аридные экосистемы.-2009.- Том.15.- № 3 (39).- С. 28-35.
2. "Киевский доклад" Деградация почв. №9. Россия, 2003.
3. Консультативный совет Германии по глобальным изменениям 1994 г.; ЕЕА, 1999 г.

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И РАЗВИТИЕ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЕЖИ - ЭФФЕКТИВНЫЙ ПУТЬ РЕАЛИЗАЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В УСЛОВИЯХ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

Шарипова Д.Д., проф. ТГПУ, **Хушвактова Х.С.**, доц. УзДЖТУ

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы для современного общества- повышение социальной активности и лидерских качеств как эффективный путь реализации человеческого капитала путём проведения среди студентов однодневных семинар-тренингов.

Ключевые слова: студенческая молодежь, социальная активность, гражданская позиция, лидерские качества, человеческий капитал

Annotation. The article deals with topical issues of modern society - increasing social activity and leadership qualities as an effective way of its implementation of human capital by holding one-day seminar-trainings among students.

Keywords: student youth, social activity, civic position, student youth, social activity, citizenship activity, leadership qualities, human capital.

Аннотация. Мақолада замонавий жамиятнинг долзарб масалалари - талабалар ўртасида бир кунлик семинар-тренинглар ўтказиш орқали инсон капиталини ривожлантиришнинг самарали усули сифатида ижтимоий фаоллик ва етакчилик фазилатларини ошириш кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: талаба ёшлар, ижтимоий фаоллик, фуқаролик позицияси, ижтимоийлашув етакчилик фазилатлари, инсон капитали.

В современных условиях рынка конкурентоспособность выпускника ВУЗа зависит от наличия у него организационно-управленческих навыков и умений проявлять теоретическую подготовку, способность находить решения в нестандартных ситуациях, способностью влиять на других людей и распределять работу в коллективе, уметь разбираться людях ответственность, общительность, способность внушать доверие, грамотная речь, а также разрешать социальные конфликты и вести переговоры.

Анализ научной литературы по проблеме исследования показал, что ученые все еще не пришли к единому толкованию понятий «лидер», «лидерство» [1]. Наиболее часто в современной литературе встречается определение лидера как члена группы, который спонтанно выдвигается на роль неофициального руководителя в условиях конкретной, значимой ситуации. Его основная функция заключается в обеспечении организации совместной деятельности людей для быстрого и успешного достижения общей цели [2].

В четвертом направлении принятого постановления стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг. направленного на реализацию справедливой социальной политики и развитие человеческого капитала. Предусмотрено повышение охвата высшим образованием до 50% и повышение качества образования. Как известно, повышение качества образования способствует социальной активности студентов, в том числе формирование гражданской позиции способствующей социализации личности [3].

Общество, вступившее в третий Ренессанс, остро нуждается в молодежи, проявляющей высокую социальную активность и занимающей устойчивую гражданскую позицию в условиях изменяющейся социальной среды [4].

Понятие «социальная активность, согласно педагогическому словарю, определяется как совокупность методов, процедур, направленных на изменение социальных условий в соответствии с потребностями, целями и идеалами, на выдвижение и реализацию социальных инноваций, формирования в себе необходимых социальных качеств [5].

Актуальность и востребованность реализации данной проблемы весьма очевидна и поэтому она была поддержана педагогической общественностью, отметившей, что её надо осуществлять на разных этапах развития личности особенно на подростковом и юношеском этапах.

В этой связи был подготовлен проект для студенческой молодежи «Повышение социальной активности и развитиелидерских качеств молодёжи– эффективный путь в развитии человеческого капитала, выполнение которого осуществляется при партнерской поддержке Фонд им. Ф. Эберта в Узбекистане. Цель проведения семинара заключалась в изучении лидерских качеств студентов и возможностей их развития. Бенефициарами данного проекта были студенты Узбекского государственного университета мировых языков, тренерами являлись доктора педагогических наук Г.Х.Бакиева, Д.Д.Шарипова, Ф.М.Рашидова при участии волонтеров доцентов Х.С.Хушвактовой, Ф.С.Абдуллаевой. Проведение семинаров тренингов предусматривало рассмотрение таких тем, как социальная активность молодежи, её гражданская позиция, человеческий капитал, о которых давали основные понятия модераторы тренинга, а затем всем участникам тренинга предлагалось назвать наиболее актуальные для современного общества проблемы. В ходе проведения 8 тренингов студенты назвали наиболее актуальные проблемы современного общества, из них наиболее частыми были следующие:

1. Трудоустройство.
2. Самоуверенность, пунктуальность.
3. Коррупция

4. Качество образования.
5. Система обучения неэффективна.
6. Потеря интереса к обучению стремления к развитию.
7. Недостаток знаний по информационным технологиям.
8. Низкий уровень воспитания молодежи.
9. Проблемы образования: не хватает практики, нет возможности работать над проектами, создание различных кружков, как доводить свои идеи до совершенства.

Среди названных тем студенты выбирали 5 наиболее актуальных, по их мнению, и делились на 5 малых групп по 4 человека. Наиболее часто участники тренинга выбирали такие темы, как:

-Экология;
-Образование;
-Коррупция;
-Формирование личности;
-Проектная деятельность.

Работая в малых группах участники определяли, в чем заключается неотложность решения проблемы и что для этого следует делать, а затем представляли очень креативно выполненные презентации.

Невысокие показатели лидерских качеств будущих специалистов свидетельствуют о необходимости организации в вузе специальной работы по их формированию и развитию у студентов, что способствует улучшению качества образования в предстоящей педагогической деятельности.

По итогам тренинга студенты высказали свое мнение по тому, что они получили в результате проведённого мероприятия: повышение интереса к образованию и формирование лидерских качеству обучающихся.

На основе анализа работ, посвященных рассматриваемой проблеме, нами были разработаны следующие психолого-педагогические рекомендации по развитию лидерских качеств у студентов:

- учебно-воспитательный процесс в высшем учебном заведении следует направить на создание благоприятных условий для формирования лидеров;
- необходимо создать условия для осознания и проявления студентами себя в качестве ответственных, активных и инициативных личностей;
- формирование и развитие лидерских качеств у студентов следует осуществлять в процессе личностно-ориентированного взаимодействия в системах «студент - преподаватель», «студенческая группа - преподаватель»;
- организовать семинары для преподавателей и кураторов, вооружить их знаниями, необходимыми в работе со студентами-лидерами;
- в рамках семинара желательно организовать цикл тематических бесед и мини-лекций, направленных на приобретение, расширение и углубление знаний студентов в области мультикультурного общения

Анализ выступлений участников позволил выявить ряд противоречий между:

а) пониманием важности подготовки студенческого актива и отсутствием какой-либо конкретной структуры, занимающейся данным вопросом;

б) стремлением выявить из числа студентов активистов, обладающих лидерским потенциалом и желающих его развивать и отсутствием отлаженных и действий. Указанные противоречия свидетельствуют о том, что в вузе должна проводиться целенаправленная работа по формированию лидерских качеств, гарантом успеха которой выступает эффективно работающая система вне учебной воспитательной деятельности, реализующая единство организационных и педагогических условий для эффективной работы.

Сделан вывод о необходимости организации в вузе специальной работы по формированию и развитию лидерских качеств у студентов. Учебно-воспитательный процесс в вузе должен быть направлен на развитие лидерских качеств у студентов, создание эффективных психолого-педагогических условий для развития человеческого капитала и эффективного развития качества образования в стране.

Список использованной литературы:

1. Бендас Т.В. Психология лидерства [Текст]: учеб. Пособие / Т.В. Бендас. - Питер, 2009. - 448 с.
2. Андреев В.И., Сайкина Е.Н. Развитие лидерских качеств студентов в США: Учеб. метод. пособие. – Казань, 2004.
3. УП-60. “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”
4. Тоджибаева Х.М., Педагогическая система в повышении социальной активности учащихся. Автореф. Дис. Доктора философии (PhD)по педагогическим наукам. Ташкент 2018.
5. Педагогический словарь. Под редакцией В.И.Загвязинского, А.Ф.Запуговой. М.: Издательский центр “Академия” 2008.

ТАРВУЗ (*CITRULLUS LANATUS* (THUNB.) MATSUM. & NAKAI) НИНГ ЗАМБУРУҒ КАСАЛЛИКЛАРИ

Холмурадова Т.Н. б.ф.н., катта илмий ходим, Ғаффоров Ю.Ш. б.ф.н., катта илмий ходим, Тешабоева Ш.А. кичик илмий ходим
ЎзР ФА Ботаника институти

Мамлакатимизда етиштириладиган полиз экинлари ва мева-сабзавотлар саломатлик учун фойдали микроэлементлар, озиқ-овқат рационида ўрнини алмаштириб бўлмайдиган турли биологик моддаларга бойлиги туфайли ноёбдир.

Тарвуз (*Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai.) Cucurbitaceae Juss. оиласига мансуб полиз экини бўлиб, асл ватани Жанубий Африка хисобланади. Тарвузнинг пояси ингичка, эгилувчан, судралувчи поя хисобланади узунлиги 4 метргача етади. Ёз ойларида гуллаб меваси пишади. Тарвузнинг меваси истемол қилинади. Тарвуз кучли диуретик, яллиғланишга қарши, иситма туширувчи хусусиятларга эга ўсимлик хисобланади.

Қишлоқ хўжалик экинларидан мўл ҳосил олиш ва етиштирилган ҳосилни сақлаб қолишдаги асосий омиллардан бири зараркунанда, касаллик ва бегона ўтлардан ҳимоя қилишдир. Ҳозирги кунга келиб Республикамизнинг иқтисодий аҳамиятга эга бўлган ўсимликлар, экспортбоп мева, сабзавот ва

полиз экинларидан занг, ун-шудринг, монилиоз, парша, тешикли доғланиш, турли чириш ва бошқа касалликларни келтириб чиқарувчи патоген замбуруғларнинг кенг тарқалиб бориши кузатилмоқда.

Республикамизда иқтисодий аҳамиятга эга бўлган ўсимликлар, экспортбоп мева, сабзавот ва полиз экинларидан халқимиз эхтиёжини қондиришда фойдаланиш, уларнинг зараркунанда ва касалликларига қарши курашишга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 13.10.2020 йилдаги ПҚ-4861-сонли қарорида ҳам иқтисодий аҳамиятга эга бўлган ўсимликлар, экспортбоп мева, сабзавот ва полиз экинлари, уларнинг заракунанда ва касалликларига қарши курашиш бўйича вазифалар белгиланган.

2021-2024 йилларга мўлжалланган “Иқтисодий аҳамиятга эга бўлган ўсимликлар, экспортбоп мева, сабзавот ва полиз экинларида касаллик қўзғатувчи патоген замбуруғлар: хилма-хиллиги, мониторинги ҳамда электрон маълумотлар базасини яратиш (Наманган ва Бухоро вилоятлари мисолида)” давлат дастури бўйича ишлар олиб борилди.

Бухоро ва Наманган вилоятидаги иқтисодий аҳамиятга эга бўлган ўсимликлар, экспортбоп мева, сабзавот ва полиз экинларида касаллик қўзғатувчи патоген замбуруғ касалликлари етарли даражада ўрганилмаган. Фақатгина 1965 йилда Гапоненко [Гапоненко, 1965: 114],[Гапоненко, 1954: 21] томонидан Бухоро вилояти микобиотаси ва Ғаффоров Ю.Ш. томонидан 2005-йилда Наманган вилояти юксак ўсимликларидаги микромицетлари тадқиқ этилган [Ғаффоров, 2005: 21].

Замбуруғлар асосий қишлоқ хўжалиги касалликларини келтириб чиқарувчи эукариот организмлар ҳисобланади. Замбуруғларнинг 3 млн га яқин тури бор деб башорат қилинади. Бугунги кунга қадар бутун дунё бўйлаб замбуруғларнинг 130 мингдан ортиқ тур ва тур хиллари аниқланган.

2021 йилги дала тадқиқотларимиз мобайнида Наманган вилояти, Мингбулоқ тумани, Бозорбоши МФЙ, Убайдулла ота фермер хўжалигига экилган тарвузнинг фузариоз сўлиш *Fusarium oxysporum* Schltdl., Fl. berol. касаллиги билан зарарлангани кузатилди.

Тарвузнинг фузариоз сўлиши (фузариоз вилт). Тарвуз фузариоз сўлишини *Fusarium oxysporum* Schltdl. гифомицет замбуруғи қўзғатади. Уруғбарглари, майсалари, пояси ва илдиз бўғзи чириши ва сўлиши тарвузни қайта экишнинг асосий сабабидир. Фузариоз сўлиш экинларда мева ривожланиши ва пиша бошлаши пайтида кўплаб учрайди. Олдин ўсимликнинг пастки ярусдаги баргларида сарғиш, сўнгра қўнғир тус олувчи доғлар пайдо бўлади ва улар юқори ярус баргларига ўтади. Палаклардан бири ѐки бир нечтаси, сўнгра бутун ўсимлик сўлади (1- расм).

Касалликнинг тез ривожланувчи шакли кузатилганда ўсимлик 1-2 кун ичида сўлиб қолади. Олдин тарвузнинг бир ѐки бир неча палаги, сўнгра бутун ўсимлик сўлиб қолади. Бунинг сабаби ўсимлик ўтказувчи томирлари мицелий билан тўлиб, тиқилиб қолиши ҳамда патоген чиқарган токсинлар ўсимликни заҳарлашидир. Зарарланган, аммо сўлимаган ўсимликлар заиф, нимжон, мевалари эса майда ва сифатсиз бўлиб қолади. Мавсумдан мавсумга касаллик ўсимлик қолдиқлари ва камроқ даражада (30-35% гача) уруғлар билан ўтади. Замбуруғ ўсимликларга илдизлари орқали киради. У тупроқда кўп йил

сақланиши мумкин. Патоген ривожланиши учун муътадил ҳаво ҳарорати 25-28^{0}C, минимум 12^{0}C ва максимум 34^{0}C, қишда замбуруғ 15^{0}C совуқда ҳам нобуд бўлмайди. Экин ичида ва бошқа далаларга касаллик тупроқ заррачалари, тупроққа ишлов бериш асбоб-ускуналари ва суғориш сувидаги замбуруғ мицелий парчалари, конидиялари орқали тарқалади.





1-расм. *Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai (*Fusarium oxysporum* Schltdl. замбуруғи ва конидиялари)

Ўзбекистонда тарвузда (*Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai.) учраган касалликлар

Ascomycota	бўлими
Sordariomycetes	синфи
Hypocreales	тартиби
Nectriaceae	оиласи

Fusarium oxysporum Schltdl., Fl. berol. (Berlin) 2: 139 (1824)

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai. *(Citrullus vulgaris* Schrad.) (Cucurbitaceae); – Наманган вилояти, Мингбулоқ тумани, Бозорбоши МФЙ, Убайдулла ота фермер хўжалиги, тарвуз, қовун, ошқовоқ, ловия экилган дала, E 71°30'27.59", N 40°50'7.53", денгиз сатҳидан 383 метр баландликда жойлашган, 18.07.2021, Холмурадова Т.Н.

Glomerellales	тартиби
Plectosphaerellaceae	оиласи

Verticillium lateritium Berk., Outl. Brit. Fung. (London): 408 (1860)

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) (Cucurbitaceae); - Андижон вилояти,

Ленинград колхози, IX 1962. (Сагдуллаева ва бошқалар, 1989);

Verticillium dahliae Kleb., Mykol. Zentbl. 3: 66 (1913)

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) (Cucurbitaceae); - Андижон вилояти, Избосган тумани, Коммунизм колхози IX 1968. (Сагдуллаева ва бошқалар, 1989).

Leotiomycetes синфи
Helotiales тартиби
Erysiphaceae оиласи

Golovinomyces biocellatus (Ehrenb.) V.P. Heluta 1988[= Oidium erysiphoides Fr., Syst. mycol. (Lundae) 3(2): 432 (1832)]

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai. *(Citrullus vulgaris* Schrad.) (Cucurbitaceae); Тошкент вилояти, Охангарон тумани, Андреева кохози, 30.IX.1954 (Панфилова,1963);

Erysiphe cichoracearum DC.f. cucurbitacearum Pot.

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai. *(Citrullus vulgaris* Schrad.) (Cucurbitaceae); Самарқанд вилояти, Ғаллаорол тумани, Бахмал совхози, VIII (Гапоненко ва бошқалар, 1983);

Dothideomycetes синфи
Pleosporales тартиби
Didymellaceae оиласи

Epicoccum vulgare Corda, Icon. fung. (Prague) 1: 5 (1837)

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) Matsum. & Nakai. *(Citrullus vulgaris* Schrad.) (Cucurbitaceae); Тошкент вилояти, Паркент тумани, 22.VII. 1953. (Панфилова,1963);

Verticillium dahliae Kleb., Mykol. Zentbl. 3: 66 (1913)

Тарқалиши: *Citrullus lanatus* (Thunb.) (Cucurbitaceae); - Андижон вилояти, Избосган тумани, Коммунизм колхози IX 1968. (Сагдуллаева ва бошқалар, 1989);

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гапоненко Н.И. Микофлора низовев Аму Дарьи. Автореф. дис. канд. биол. наук. – Ташкент, 1954. – 21 с.
2. Гапоненко Н.И. Обзор грибов Бухарской области. – Ташкент: Наука, 1965. – 114 с.
3. Ғаффоров Ю.Ш. Микромицеты сосудистых растений Наманганской области.Автореф. дис. …канд.биол. наук. –Ташкент, 2005. –21 с.

ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ ЭКОЛОГИК ШАРОИТДА ТУПРОҚ-МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИ

Отенова Ф.Т.
Қорақалпоқ давлат университети

Ҳозирги даврда ҳудуднинг бош экологик муаммоларидан бири ер ости сувлари минераллашувининг ортиши оқибатида юзага келган ерларнинг иккинчи шўрланиши масалалари ҳисобланади. Жанубий Оролбўйи ҳудудида мавжуд бўлган сув заҳираларининг танқислиги, тупроқнинг шўрланиши,

сувларнинг ифлосланиши, аҳолининг сифатли ичимлик суви билан етарли таъминланмаганлиги, яйловлар ва ҳайдаладиган ерларнинг деградацияга учраши, туқай ва саксавул ўрмонларининг нобуд бўлиши каби экологик муаммолар мазкур ҳудудни экологик фожиа зонаси деб расман тан олишга олиб келди [4,5].

Ерларнинг, айниқса суғориладиган тупроқларнинг таназзули (деградацияси) ва тупроқ унумдорлигининг пасайиши, минтақа қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришидаги турғунлик ва ўсиш суръатларини тушиб кетишининг асосий сабабларидан биридир. Тупроқ таназзули билан боғлиқ хатарларга одатда кўпинча эътиборсизлик билан қаралади, жумладан шўрланиш ва эрозия оқибатида тупроқ, ҳаво ва сувнинг ифлосланиши каби омилларнинг баҳоланиши одатда фермерлар ва бошқа ер эгалари иштирокисиз амалга оширилади.


Расмий маълумотларга қараганда мамлакатимизда табиий (бирламчи) шўрланишга чалинган қурғоқчил ҳудудлар, ҳаракатдаги қумлар ва чангли бўронлар тарқалган майдонлар 31,4 млн. гектарни, суғориладиган шўрланган ерлар суғориладиган умумий ер майдонларига нисбатан 52 % ни, шу жумладан ўртача ва кучли шўрланган ерлар майдони 18 % ни ташкил этади. Хусусан энг юқори даражада шўрланган суғориладиган ерлар Қорақалпоғистон Республикасида 90-95% ни, Бухорода 96% ни ва Хоразм вилоятида 95- 100% ни ташкил этгани ҳолда, бу вилоятларда ҳосил камайишининг энг юқори кўрсаткичлари кузатилади [1].

Жанубий Оролбўйи суғориладиган ерларида ерларнинг шўрланиши энг асосий деградацион жараёнлардан биридир. Оролбўйи ҳудудида тупроқнинг ҳозирги ҳолати энг қийин вазиятдадир. Охирги 40-50 йил ичида тупроқдаги гумус таркиби 30-40% тушиб кетган, 60% га яқин экиладиган майдонларда 1% дан ҳам кам гумус бор. Шу билан боғлиқ ҳолда Оролбўйи деҳқончилигида биринчи навбатдаги ишлардан бири шўрланган ерларни ёппасига суғориш ва уларни қишлоқ хўжалиги деҳқончилигига қайтариш бўлиб қолмоқда. Экологик хавфсизликни таъминлашнинг ва экологик таҳликани пасайтириш ва бартараф этишнинг асосий стратегик йўналишларини аниқлашда комплекс экологик хавф-хатарлар ва муаммоларни назарда тутиш муҳим аҳамиятга эга [6].

Шу нуқтаи назардан тупроқ унумдорлигини сақлаб қолиш ва унинг миқдорини ошириш экологик муаммоларнинг энг асосийсидир. Тупроқдан фойдаланиш жараёнида унга баъзи антропоген омиллар таъсир ўтказиши мумкин, бу эса унинг унумдорлигининг пасайишига олиб келади. Шу сабабли ҳам ушбу таъсирларни бартараф этиш учун муайян тадбирлар амалга оширилиши зарур.

Жанубий Оролбўйи суғориладиган ерларини тупроқ-мелиоратив аспект бўйича ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, у ердаги тупроқнинг асосий қисмини кулранг-бўз тупроқ (серо-бурые) – 55,6% ташкил этади, кейинги ўринда чўл-қум тупроқлар – 15,7% туради, озгина ҳиссасини ботқоқли-ўтлоқли – 0,10% тупроқлар (1-расм) ташкил этади. Тупроқларга сув чиқариш бўйича ўтказилган таҳлилларнинг гувоҳлик беришича, ўрганилаётган ҳудудларда шўрланиш типи хлорид-сульфат типидир. Танланган намуналари 3 та асосий нуқтадан ва 5 та горизонтдан олинди. Ўтказилган таҳлиллар кўрсатдики, №2

ўриндан 20-30см горизонтдан олинган намуналарда шўрланиш типи сульфат-хлорид типидир, №3 ўриндан олинган намуналарда сульфат-хлорид шўрланиш типига ўтиш фақат 10-20см горизонтларда кузатилади [3].



1-расм. Жанубий Оролбўйи суғориладиган ерларнинг тупроқ-мелиоратив соҳалар бўйича тақсимланиши

Жанубий Оролбўйи ҳудудидаги пахта экувчи шимолий туманларидаги суғориладиган тупроқлар табиий ҳосилдорлиги ҳисобидан 13-15 ц/га даражада пахта хом ашёси ҳосили беришга қобилиятлидир. Бунда умумий азот салмоғи аста-секин пасайиб 0,042% гача етади, охирги йилларда умумий азот камайиши 31,8% га етган [2], шунингдек, фосфор ва калийнинг миқдорлари ҳам анча камайганлиги кузатилмоқда, аммо тупроқдаги гумус салмоғи анча барқарорлашгани ва унга бўлган дефицит 162-199 кг/га дан ошмаслиги кўзга ташланади. Айниқса, тупроқларда гумус салмоғи сақланиб қолганлиги сабаб пахта хом ашёси ҳосили барқарор кўрсаткичда сақланиб қолганлигини, яъни 13-15 ц/г даражасида бўлаётганлигини қайд этиш мумкин [2].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ахмедов А.У., Турдалиев Ж.М., Мирзамбетов А.Б., Бурханова Н.Ҳ., Қиличова Н.А. Соғлом тупроқ-барқарор қишлоқ хўжалиги гарови / «Тупроқ унумдорлиги ва қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлигини оширишнинг замонавий-инновацион технологиялари, муаммо ва ечимлар» Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Бухора, 2021. Б.56-58

2. Исмайлов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. Нукус, «Билим», 2004, 186 с.

3. Отенова Ф., Мамбетуллаева С. Жанубий орол бўйи арид ҳудудларида тупроқнинг ҳозирги даврдаги ҳолати. Хоразм Маъмун Академияси. 2021, №7. Б.67-69

4. Панкова Е.И. Засоление орошаемых почв среднеазиатского региона: старые и новые проблемы // Аридные экосистемы, 2016, том 22, № 4 (69), с. 21

5. Pankova Je.I., Aidarov I.P. 2010. Secondary Salinization of Soils in the Aral Basinas a Factor of Anthropogenic Desertification // Nova Seience Publishers. Inc. NewYork. Vol. 2. P. 189-216.

6. Широкова Ю.И., Морозов А.Н. Экологические проблемы засолённых орошаемых земель [Электронный ресурс]. http://water-salt.narod.ru/eko_prob_z_z_uz.htm (на 01.03.2017)

ВИДОВОЙ СОСТАВ И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ СУПРАЛИТОРАЛЬНЫХ СТАФИЛИНИД (COLEOPTERA, STAPHYLINIDAE) НИЖНЕ-АМУДАРЬИНСКОГО БИОСФЕРНОГО РЕЗЕРВАТА

Бекбергенова З.О[1].,Дауылбаева К.К[2]., Дауылбаева К.К[3]
Институт сельского хозяйства и агротехнологии Каракалпакстана[1]Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук ККО АН РУз[2],
Общеобразовательная школа №9 г.Нукуса[3]

Эколого-фаунистические исследования актуальны во всем мире. Более важные научные сведения по стафилинидамобитающих на прибрежных биотопах отражены в работах зарубежных и региональных ученых [1, с. 3-97; 2, с. 43-46; 3, с. 42-45; 4, 304с; 5, с. 192-202; 6, с.1-190].

Видовой состав и экологические особенности стафилинид изменяются в зависимости от ландшафтных условий и конкретных местообитаний.Сравнительно высоко обилие стафилинид (*Staphylinidae*) прибрежной зоны поймы низовьев Амударьи на территории Нижне Амударьинского Биосферного Резервата (НАБР), который, представляет собой эталонный тугайный биогеоценоз. Видовой состав и распределение стафилинид зависит от зональных местообитаний и других условий. Здесь на побережьях реки Амударьи выделен прибрежный биотоп с околоводными растениями, такими как тростник, рогоз, камыш, ажрек, а поблизости - тамариксово-чингиловые заросли, лохово-туранговая роща, дамба поливочной системы и сельскохозяйственные угодья. Вышеуказанные биотопы создают благоприятную природную среду для большинства видов стафилинид и здесь выявлено 35 видов данных жуков. Относительная численность и характер распространения стафилинид в каждом из выделенных биотопов оказались неравномерны, средняя плотность данных жуков выявлены наиболее высока, в участках данной территории: N 41^0 58.380′; E 060^0 24.124′N 41^0 58.242′

E 060^0 23.401′; N 41^0 58.414′; E 060^0 22.900′N 41^0 58.741′; E 060^0 24.293′N 42^0 00.176′; E 060^0 17.820′N 42^0 00.176′; E 060^0 17.815′N 41^0 59.556′; E 060^0 18.027′.

В наших наблюдениях на прибрежных биотопах, у многих видов отмечается специализация к определенным типам водоемов. Виды рода *Stenus* предпочитает берега, лишенные растительности, а представителей*Philonthus*– больше на берегах степных водоемов. Питающиеся почвенными водорослями представители рода *Carpelimus,* предпочитают свободную от растительности и хорошо освещенную супралитораль. Обитают они в верхнем (1,5-3 см) слое почвы, в вырытых ими норках или скважинах почвы, реже - под растительными остатками в прибрежной полосе.

На побережьях поймы низовьи Амударьи(на территории НАБР)обитают представители различных экологических комплексовстафилинид – рипиколы (18%), стратобионты (41%), копробионты (15%), эпибионты (10%), геобионтов (7%), ботробионты (9%).Согласно нашим исследованиям трофических связей, преобладают жуки питающиеся живой добычей (зоофаги) – 48%, питающиеся

водорослями, частями растений (фитофаги) – 13%, питающиеся перегнившими растительными остатками (сапрофаги) - 17%, а эврифаги являются – 15%, пищевая специализация 6 видов 7% - не установлена.

Для исследуемого региона в последнее двадцатилетие стало характерно маловодье. Данные, полученные в течение многих полевых сезонов, особенно в некоторые годы, в нашем регионе,свидетельствуют об относительной нестабильности основных показателей микроклимата, особенно в слое, непосредственно прилегающем к грунту, в местах в которых обитают стафилиниды. Стафилиниды вынуждены мигрировать вслед за заполнением водоема водой и его периодическим осушением. Особенно летом, околоводные местообитания населяет наибольшее число видов жуков-стафилинид, это связано с засушливыми условиями исследуемого региона, где при засухе все влаголюбивые виды животных концентрируется около воды.

Таким образом, представители семейства Staphylinidae заселяют супралитораль всевозможных водоемов, но при благоприятных условиях могут переходить и в зональные экосистемы - ассоциации различных сукцессионных гидросерий, если обильно увлажненные участи могут предоставить необходимую трофическую базу для успешного завершения цикла воспроизводства. Этим объясняется нахождение отдельных видов в некоторых компостах и влажной подстилке.

Список литературы

1. Азимов Д.А. Бекузин А.А., Давлетшина А.Г., Кадырова М.К.Насекомые Узбекистана. - Ташкент, Фан, 1993.– С. 3-97.
2. БекбергеноваЗ.О., ХамраевА.Ш. Фауна и экология стафилинид (Coleoptera,Staphylinidae) Каракалпакстана // Узбекский биологический журнал-2008, №4, часть 1.–С. 43-46.
3. БекбергеноваЗ.О., ХамраевА.Ш. Фауна и экология стафилинид (Coleoptera,Staphylinidae) Каракалпакстана // Узбекский биологический журнал-2008, №5, часть 2. –С. 42-45.
4. Гильденков М.Ю. Фауна *Carpelimus* Палеарктики (Coleoptera, Staphylinidae).– Смоленск, 2001. –304 с.
5. Кащеев В.А. Аналитический обзор населения стафилинид (Coleoptera,Staphylinidae) Приаралья // TethysentomologicalresearchVII, 2002б, 10. – С. 192-202.
6. Тихомирова А.Л. Морфо-экологические особенности и филогенез стафилинид (с каталогом фауны СССР). М., Наука, 1973.– С.1-190.

UY HAYVONLARIDAGI NEMATODALARGA QARSHI ANTIGELMINTIK PREPARATLARNI SINASH

O.O. Amirov - O’zR FA, Zoologiya instituti, **T.N. Toxirjonov** - O’zMU magistranti
S.O. Madumarova - O’zMU magistranti
maqsadjon_mj84@umail.uz

Butun jahon chorvachilik amaliyotida dunyoning deyarli barcha hududlarida qayd qilingan kavsh qaytaruvchi uy va yovvoyi hayvonlarning xazm tizimida parazitlik qiluvchi nematodalarini o’rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu

nematodalar asosida yuzaga keluvchi kasalliklar invaziyasi iqtisodiyotga sezilarli zarar keltirib, uy va yovvoyi hayvonlarlarning mahsuldorlik ko’rsatkichlarini keskin pasayishi va shuningdek, yosh individlarning nobud bo’lishiga sabab bo’lmoqda. Ayniqsa, yaylov chorva hayvonlarini Trihostrongylidae oilasi nematodalari bilan zararlanishini yuqori ekanligini alohida ta’kidlash lozim. SHunga ko’ra, O’zbekiston kavsh qaytaruvchi hayvonlarning xazm tizimidagi parazit nematodalarining tur tarkibi va sistematik o’rnini isbotlash, turli omillarga bog’liq ravishda hayvonlarni nematodalar bilan zararlanish dinamikasi aniqlash, zararlanishini diagnostika qilishda turlarga xos praymerlar yaratish hamda nematodalarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda kavsh qaytaruvchilarni hazm tizimida parazitlik qilib yashovchi nematodalarni sistematikasi bo’yicha yagona bir to’xtamga kelingan fikrlar mavjud emas (K.I.Skryabin, R.S.SHuls, W Becklund M.C. Durette-Desset, R.J. Lichtenfels, E.P. Hoberg, J. Drozdz; P. Daskalov, J. Cabaret, D.S. Zarlenga). K.I.Skryabin va R.S.SHuls 1937 yilda Trichostrongylidae Leiper, 1962 sistematikasini qaytadan ko’rib chiqib, Trichostrongilinae Leiper, 1908 oilasi tarkibida Ostertagiea kenja oilasi tuziladi va uning tarkibida 9 ta avlod kiritiladi. *Ostertagia; Camelostrongylus* Orloff, 1933; *Hyostrongylus; Bidalkea* Monnig, 1931; *Obilescoides* Graybill, 1923; *Travassossius* Khalil, 1922; *Parostertagia* Shwarts et Alicata, 1933; *Pseudostertagia, Baylisiella* Skrjabin et Schulz, 1937.

Gelmintologik materiallar 2017-2021 yillar davomida Namangan, Farg’ona, Andijon viloyatlarini fermer va shaxsiy xo’jaliklari hamda shu hududlarda joylashgan qushxonalardan mayda shoxli hayvonlar (MSHH) va yirik shoxli hayvonlarning (YSHH) hazm qilish tizimidan gelmintologik materiallar yig’ildi

Jumladan, uy qo’yidan 82 bosh, echkilardan 12 bosh, qora mollardan 56 bosh, hazm qilish organlari (shirdon va ingichka) ichaklarni to’liq va to’liq bo’lmagan gelmintologik yorib ko’rish K.I. Ckryabin (1928) uslubidan foydalanib tekshirildi.

Yig’ilgan nematodalarni 70% etanolda fiksasiya qilindi. Nematodalarni matriksdan ajratib olishda MBS binokulyar lupalarining turli okulyarlaridan foydalanildi. Petri chashkasiga ozgina matriks solib, biroz miqdorda suv qo’shildi va chashka zigzaksimon harakatlantirilib ichidagi bor narsalari kuzatildi

Bugungi kunda farmasevtika bozorida hayvonlar gelmintoz kasalliklariga qarshi kurashishga mo’ljallangan kuchli ta’sir qiluvchi sun’iy preparatlar anchagina. Jumladan hayvonlar nematodozlarga qarshi ko’plab mahalliy va xorijiy organik antgelmintik (albendazol, timbendazol, gelmisid, medapek va boshq.) dori preparatlardan keng ko’lamda foydalanilmoqda. SHu bilan birga ularning har biri o’ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega.

Lekin, dorivor o’simliklardan tayyorlangan antigelmintik preparatlarni afzalligi shundaki, ular parazit organizimiga tez ta’sir qilib, ho’jayin organizimiga zararsiz xisoblanadi (Magerramov, 2008, 2013). Hozirgi vaqtga kelib, o’simliklardan tayyorlangan antigelmintiklar parazitlarga qarshi keng ko’lamda foydalanilmoqda. SHu bilan birga, chorvachilik xo’jaliklaridagi hayvonlarni oziqlantirishda yaylovlardagi dorivor o’simliklarni hayvonlar iste’mol qilishi orqali, ular organizmidagi parazit individlarning yo’qolishiga sabab bo’lgan (Utyaganov, 1969; Volkov, 1976; Eminov, 1982).

Tadqiqot ishida *in vitro* sharoitida parazit nematodalarga nisbatan yaxshi ta’sir etgan o’simlik ekstraktlarini mayda shoxli hayvonlarga ta’sirini o’rganish maqsadida laboratoriya va dala tajribalari o’tkazildi.

Laboratoriya tajribasi. Oshqozon-ichak nematodalariga nisbatan 6ta turga mansub o’simlik ekstraktlari (Karimova va boshq., 2020) laboratoriya sharoitidagi zararlantirilgan qo’y va echkilarda sinab ko’rildi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi – O’zbekiston sharoitida voyaga etgan ostertagiya, marshallagiya va teladorsagia kabi kavsh qaytaruvchi hayvonlarda ostertagiinoz qo’zg’atuvchilariga qarshi keng ta’sir spektriga ega bo’lgan yangi dori vositalarini izlab topishdan iborat.

Mahalliy medapek (2,5% li eritmasi), albendozol (10% li suspenziyasi) va timbendazol (22%li fenbendazol donachalari) preparatlari berilganidan 10 kun o’tganidan keyin, tajriba va nazorat guruhidagi hayvonlar ahlati tekshirildi. Olingan natijalar 1–jadvalda keltirilgan.

Jumladan, albendazol preparatining bir marta foydalanilishidan keyin samaradorlik qiymati 100%, timbendazol preparati uchun – 90,1% va medapek preparati uchun esa – 81,1% ga tengligi aniqlandi. Nazorat guruhida barcha hayvonlarda invaziya holati o’zgarishsiz qoldi. SHunday qilib, butun tajriba davomida 1 g miqdordagi hayvon ahlati tarkibida ostertigiin nematoda tuxumlarining o’rtacha soni 44,4–41,4 donani tashkil qilishi aniqlandi.

Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani “Axsi” fermer xo’jaligi ostertagiozga qarshi dori preparatlarining samaradorligini aniqlash,(M±m).

Hayvon-lar guruhi	Dorilar (doza 50 kg tana vazniga)	Hayvon-lar soni	Zararlan-gan hayvon-lar	1 g fekaliyda o`rtacha nematoda tuxumlari, soni		Samara-dorligi (%)
				Davolash-dan oldin	Davolash-dan keyin	
2	Gelmisid (1 dona)	10	9	44.2±2.33	4.4±0.12	90.0
3	Medapek (15 ml)	10	10	40.5±3.48	8.1±0.23	89.8
4	Nazorat	6	6	47.1	45.1±3.33	0

Shunday qilib, amalga oshirilgan laboratoriya va dala sharoitida tajribalarda olingan natijalar asosida, qo’ylarda ichak nematodasi (ostertagioz) sharoitida YZ–Alben 50 kg tana vazniga ega hayvonlarga nisbatan 10 ml, Gelmisid donachasi 50 kg tana vazniga ega hayvonlarga nisbatan 1 dona, medapek preparatini 50 kg tana vazniga ega hayvonlarga nisbatan 15 ml medapek preparatini bir marta *per os* usulidan organizmga kiritish) preparalaridan foydalanish tavsiya qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Амиров О.О., Мирзаева Г.С., Кучбоев А.Э. *Teladorsagia circumcincta* ва *Teladorsagia davtiani* (Nematoda: Ostertagiinae) турларининг молекуляр-генетик таҳлили // Инфекция, иммунитет и фармакология журнали. –Тошкент, 2014.- №4.- Б.25-30.

2. Андреева Н.К. Ревизия Остертагией (Трихостронгелид) жвачных // Тр. ин-та вет. Казахского филиала ВАСХНИЛ.- Алма-ата, 1957 Т.8. - С. 473–487.
3. Андреева Н.К. Структура спикул у трихостронгилид и их диагностическое значение // Сб. раб. по гелминтологии к 60-летию со дня рождения проф. Р.С. Шулца.-Алма-Ата: Казахское гос. изд-во,1958. – 577 с.
4. Асадов С.М. Гелминтофауна жвачных животных СССР и ее эколого-географический анализ. - Баку: Изд. АН АзССР, 1960. – 511 с.
5. Асадов С.М., Гусейнов А.Н. К распространению возбудителя гемонхоза у жвачных в Азербайджане // Изв. АН АзССР. Сер. биол. и мед. наук. Азербайджан. 1963. - № 5. - С.35-41.
6. Архипов И.А. Этапы создания антигелминтиков и перспективы развития эксперименталной терапии гелминтозов животных в России // Российский паразитологический журнал. – 2007. - № 1. – С.67-73.

BALIQCHILIK TARMOG’INI TO’LAQONLI OZUQA YEMI BAZASINI SHAKLLANTIRISHDA DAFNIYANING AHAMIYATI

X.N.Urmanov, Qo`qon DPI o`qituvchi, S.O.Madumarova, O`zMU magistri, A.A.Abdusattorov Qo`qonDPI magistri, U.Q.Qo’chqorov, Qo`qonDPI magistri
Muqimiy nomidagi Qo`qon davlat pedagogika instituti, Qo`qon shahar, Farg`ona viloyati
maqsadjon_mj84@umail.uz

Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko’paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko’paytirish hamda baliqchilik xo’jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida [1]: baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini rivojlantirishga va baliqchilik fermer xo’jaliklari hamda tashkilotlarini yuqori sifatli ozuqa bilan ta’minlash borasidagi uzilishlar tufayli, baliqchilik mahsulotlari yetishtirish hajmlarining o’sish sur’atlari etibor qaratilmoqda [2].

O’zbekistonda o’tgan asrlarda gidrobiologik tadqiqotlar yo’nalishida mamlakatimiz olimlari A.M.Muxamediev, E.A.Toshpo’latov, I.B.Bogatovalar o’rganilgan [Мухамедиев 1967, 275: Ташпулатов 1975, 24: Богатова 1980, 168]. So’ngi yillarda turli tipdagi suv ekotizimlarida zooplankton organizmlarning taksonomiyasi, tarqalishi, ekologik xususiyatlari ustida A.R.Kuzmetovlar, X.X.Abdinazarov, M.J.Madumarovlar izlanish olib bormoqdalar [Кузметов, 2019, 23: Абдиназаров, 2018, 18: *Мадумаров, 2022, 20*]. Suv xavzalari mahsuldorligini oshirish, bo’yicha tadqiqot ishlari horijlik olimlar M.V. Michukova T.L.Shashkovalar tomonidan o’rganilmoqda [Мичукова, 2008, 20: Шашкова, 2011, 19].

Bugungi kunda tovar baliqlari tabiiy ozuqa bazasi, ya’ni zooplankton organizmlardan dafniyani ko’paytirish baliqlarning oziqasi sifatida keng ommalashmoqda. Masalan, M.V.Michukova tomonidan bitta urg’ochi dafniya avlodi 36 kunda 142 kg maxsulot berishini aniqlagan [Мичукова, 2008, 20]. Baliqchilik xo’jaliklarida baliq chavaqlarini tirik ozuqa bilan boqish, ayniqsa, baliq chavaqlarini rivojlanishning dastlabki bosqichlarida jonli (tirik) ozuqa bilan ta’minlangan


baliqlarni yetishtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tirik ozuqa yetishtirish muammosi baliqchilikni rivojlantirish va baliq chavaqlarini sanoat miqyosida yetishtirish usullarini ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi vaqtda baliqchilikni rivojlantirishda ozuqaga (dafniyaga) bo'lgan talabning ortishi, shuningdek dafniyaning asosiy ozuqasi bo'lgan bakteriyalar va mikrosuv o'tlarni ko'llarda rivojlanishi yanada yuqoriroq samara beradi. Tadqiqotlarimiz baliqlar ozuqasi hisoblangan dafniyalar Respublikamiz sharoitida tabiiy va sun'iy suv havzalarda aprelь oyi oxiri may oyi boshlarida rivojlanishni boshlaydi. Dafniyani rivojlanishi uchun organik go'ng (qora mol, ot, parranda) mahsulotlaridan, shuningdek achitqi (xamirturish)dan foydalaniladi. Ular yuqori sifatli oqsil va vitaminlarga boy eng yaxshi ozuqa manbalaridan hisoblanadi. Dafniyalarning baliqlar tomonidan iste'mol qilinishi azot, fosfor, kaltsiy va B vitaminlari (o'sish vitaminlari)ga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan birga kombinatsiyalashgan eng muhim aminokislotalarning (arginin, treonin, valin, fenilalanin va lizin) boyligi sababli qimmatbaho ozuqa sifatida foydalanish tavsiya qilinadi. Tabiiy ozuqa baliqlarning dastlabki chavaq davrida, shuningdek semirtirish davrida ham omuxta yemga nisbatan samaradorligi yuqori turadi. Chunki ularda baliqlar uchun fiziologik va energetik xususiyatlariga ega bo'lgan aminokislatalar, yog'lar, oqsillar, vitaminlar va biologik faol moddalar jamlangan. Shuning uchun bu organizmlarning barchasi sun'iy boqilayotgan baliqlarning jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari baliqlar kasallanishi va o'limining 70-80% ga kamaytiradi. Sun'iy ozuqani esa baliqlarga tabiiy ozuqa yetishmay qolganda vaqtincha berish tavsiyalar berilgan [Абдиназаров, 2018, 18: *Мадумаров, 2022, 20*].

Olib borilgan tadqiqotlar Farg'ona vodiysining baliqchilik fermer xo'jaliklarida 2019-2021 yil mavsumida olib borildi. Tadqiqot ishi tabiiy suv havzalarida uchrovchi dafniyalar asosida "Tirik ozuqa yemi" sun'iy boshqariladigan sharoitda ko'paytirish, sanoat miqiyoida yetishtirish va amaliyotga joriy etish hamda bu tadqiqotning iqtisodiy samardorligi o'rganishdan iboratdir.

Umumiy o'rganilgan 24 ta ko'l (umumiy maydoni 200 gektardan ortiq)ning tabiiy ozuqa bazasi bilan ta'minlanganlik darajasining dastlabki holati (dafniya misolida) aniqlandi. Tabiiy ozuqa bazasining umumiy ko'llarga nisbatan 73,8% (24 ta), umumiy maydonga nisbatan esa 94,5% hududda tabiiy ozuqa manbasi sifatida qayd etilgan dafniya uchramaganligi aniqlandi. Bu esa ko'llarda tabiiy ozuqa bazasining shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, bir dona dafniya (urg'ochisi) 36 kunda o'rtacha 1,4-1,5 kg mahsulot beradi (may-avgustь oylarida 1 dona dafniya o'rta hisobda bir haftada 200 dona (tirik qolgan miqdori), ikkinchi haftada 40 000 dona, beshinchi haftaga kelganda 1-1,2 million donaga yetadi. O'rta xisobda bir dona dafniya 1,5 kg massa berdi. Ushbu davr oralig'ida o'rtacha havo harorati 25-30^{0}C mutadilligi kuzatildi (1-rasm).

Dafniya uchun naslchilik usullari ishlab chiqildi va uning biologiyasi o'rganildi. Partenogenetik (yoki aseksual) ko'paytirish yil davomida turli xil darajada, notekis ko'payishi aniqlandi. Aprelь oyidan boshlab, aseksual ko'payishi bilan bir vaqtning o'zida jinsiy ko'payishi kuzatiladi.



1-rasm. Dafniya biomassasini ko`payish dinamikasi

Dafniyani yil davomida yetishtirishda haroratni hisobga olish lozim. Bahorning ikkinchi yarmi va yoz oylari davomida bir ona dafniya 5-8 kunda, qish va bahor oylarining yarmigacha 35-40 kun davomida rivojlanishi kuzatildi. Bunday sekin rivojlanish bilan dafniyani partenogenetik tuxumlarini jamg'arish mumkin, ularning mart-aprelь oyida 15-20^{0}C da haroratda intensiv rivojlanishi katta afzalligidir.

Qish mavsumida dafniyani jadal yetishtirish uchun hovuzlarning suv haroratini ko'tarish kerak. Buning uchun maksimal yorug'likni saqlash va havoni 25-30^{0}C gacha yetkazish uchun isitish tizimini o'rnatish, havzalar ustida issiqxona tipidagi qopqoq qurish kerak. SHuning bilan birga hovuzlarda 20-23^{0}C da dafniyani yetishtirish uchun qulay suv harorati yaratish mumkin bo'ladi. Bunday sharoit yo'qligi sababli, noyabrь-aprelь oylarida (suv harorati taxminan 8-12^{0}C) chavaqlarning oziqlanishi uchun qisqichbaqasimonlarni yetishtirish tabiiy holatda chegeralangan.

Dafniyani yetishtirishda shuni inobatga olish kerakki suv tarkibida ko'p miqdorda organik moddalar mavjud bo'lgan eski suvlarda dafniyaning suvni filьtrlashi va ko'payish jarayoni sustlashganligi kuzatildi. Bu holat bartaraf etish uchun hovuzlarni yangi suv bilan almashtirish talab etishi aniqlandi.

Hozirgi vaqtda karpsimon baliqlarni yetishtirishda, yillar mobaynida ishlab chiqilgan standartlar asosida organik o'g'itlardan, oziq xamirturushlaridan o'g'it sifatida foydalanish bilan dafniyani sanoat miqyosida boqish va ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Baliqchilik ho'jaliklari hududlarida dafniyani ko'paytirish iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, tashqi muhitga bog'liqligi (ochiq va bulutli kunlarda haroratning keskin ko'tarilishi va pasayishi) bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi dafniyaning yetishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Dafniyaning yetishtirishda bu usulni baliqchilik fermer xo'jaligi hududida ayrim me'yorlar harorat va quyoshli kunlar soniga qarab farq qilishi mumkin. Asosan bu o'zgarishlar dafniya yetishtirish uchun sarflanadigan organik go'ng, xamirturush miqdori va alohida rivojlanish tezligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, tadqiqotlar natijasiga ko'ra, hayvonlarning organik o'g'itlari (qoramol, ot, parranda) yordamida dafniya turlarini ko'paytirish va shu orqali baliqchilik xo'jaliklarida baliqlar mahsuldorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tabiiy ozuqa bazasi asosida baliqlarning kasalliklarga chidamligi tabiiy

sharoitga nisbatan 60-70% ga, tabiiy sharoitga nisbatan 25-30 % ga vaznning ortishi aniqlandi va bunda ozuqa yemini 15-18% gacha iqtisod qilish aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 январдаги «Балиқчилик тармоғини янада ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 18 октябрдаги 845-сон «Чорвачилик ва балиқчилик тармоқларининг озиқа базасини мустаҳкамлаш чора-тадбирларида тўғрисида»ги қарори.
3. Мухамедиев А.М. Гидробиология водоемов Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1967. 275 с.
4. Ташпулатов Э.А. Гидробиология водоемов западной части Ферганской долины: Автореферат дисс. … канд. биол. наук. – Ташкент, 1975. 24 с.
5. Богатова И.Б. Рыбоводная гидробиология. – М.: Пищевая промышленность, 1980. 168 с.
6. Кузметов А.Р. Ўзбекистон сув омборлари зоопланктон организмларининг фаунаси, экологияси ва амалий аҳамияти // Биология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент. 2019. Б.-23.
7. Абдиназаров Х.Х. Фарғона водийси сув ҳавзалари зоопланктони: Авторефарат дисс... биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Тошкент, 2018. –Б.18.
8. Мадумаров М.Ж. Ўзбекистон фаунасида *daphnia* (Cladocera: Daphniidae) авлодининг морфо-биологик хусусиятлари ва амалий аҳамияти: Авторефарат дисс... биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Фарғона, 2022. – Б.20.
9. Мичукова М.В. Использование Daphnia magna Straus, 1826 в биоиндикации, улучшении биопродуктивности и качества воды: Автореферат дисс. … канд. биол. наук. – Казань. 2008. -С.20
10. Шашкова, Т.Л. Выживаемость и трофическая активность Daphnia Magna Straus в оперативном экологическом контроле водных сред. Автореферат дисс. … канд. биол. наук. – Красноярск. 2011. –С.19

ÁDIRASPAN (*PEGANUM HARMALA L.*)– NÍŃ DÁRILIK QÁSIYETLERI

Kutlimuratova G.A., Qayıpova R.T.

Nókis mámleketlik pedagogika institutı Botanika, ekologiya hám onı oqıtıw metodikası kafedrası úlken oqıtıwshısı

Nókis mámleketlik pedagogika institutı 1-kurs magistrantı

Qadim zamanlardan insaniyat keselliklerge qarsı gúresiwde, olardı emlewde ósimliklerdiń hár qıylı organlarınan, tuqımınan, miywesinen, japıraǵınan, gúlinen h.t.b. organlarınan paydalanıp kelgen. Olardan demlemeler tayarlap keselliklerdi emlegen. Keyingi waqıtlarda Respublikamızda ekologiyalıq jaǵdaylarǵa baylanıslı kesellikler, keselliktiń túrleri kóbeyip ketti. Sonıń ushın olardı emlew, keselliklerge qarsı gúresiw ushın sońǵı waqıtlarda kóplegen jumıslar alıp barılıp atır. Álbette onıń ushın dárilik ósimliklerdi hám olardıń dárilik qásiyetlerin paydalı, zıyanlı táreplerin biliwimiz kerek boladı. Házirgi waqıtta dárilik ósimliklerdi kóbeytiw, jetistiriw

máselesi búgingi kúnniń eń aktual mashqalalardıń biri esaplanadı. Ósimliklerdiń hár qıylı organlarınan alınǵan tayar ónimler aptekalarda satılmaqta.

Usı jılı 21-yanvarda Ózbekistan Respublikası Prezidentiniń 2022-2026 jıllarda farmacevtika tarawın tez rawajlandırıwǵa baylanıslı pármanı qabıl qılınǵan edi. Bul pármanda jergilikli dári-dármaqlardı islep shıǵarıw kólemin 3 esege asırıw, ishki bazardı támiyinlew dárejesin natural kólemde 80% ke jetkiziw waziypası qoyılǵan. [2].

Qaraqalpaqstanda 360 túr dárilik ósimlik ósip, hámme ósimliklerdiń 37% kóbi dárilik ósimlikler bolıp esaplanadı.[1].

Insanlar hár qıylı keselliklerdi emlewde hár qıylı dárilik ósimliklerdi paydalanıp kelgen. Sonday ósimliklerdiń biri *Peganum harmala L.*Ádiraspan ósimligi bolıp esaplanadı. Qaraqalpaqstan aymaǵında Ádiraspannıń bir túri *Peganum harmala L.* ósedi.

Ádiraspan-óziniń kópten-kóp qásiyetleri menen Shıǵıs xalıqlarınıń jaqsı kóretuǵın em shóbi esaplanadı. Sol sebepli bolsa kerek, ádiraspan hámme apat hám keselliklerdiń aldın alıwshı qalqan sıpatında ırım dálili bolıp kelgen. Ápsanalarǵa qaraǵanda, xanalarda ádiraspan tútetip turılsa, kesellik kem boladı, sebebi ádiraspan jin-jıpırlardı quwıp shıǵaradı. Óz waqtında ádiraspanda qandaydir kúsh bar dep biliw, onıń shıpalı qásiyetlerin túsinip jetpegenliktiń nátiyjesi bolıp esaplanadı. Soń ilimiy medicina ádiraspan quramında bar bolǵan tásir etiwshi zatlar kózge kórinbeytuǵın mikroorganizmlerge qırǵın keltiriwin dálillep berdi. Házirgi waqıtta ilimiy medicinada ádiraspannan ajıratıp alınǵan garminal-koloydi hám ósimlik tamırınan tayarlanǵan spirtli demleme parkinson keselligin, tutqanaq, encefalit, bas miydiń asqınıw aqıbeti–qaltırawdı emlewde hamde uyıqlatıwshı dári sıpatında isletiledi. Ádiraspandı ayırım waqıtları harmal, isvant, garmala dep atawları biykarǵa emes. Onıń tiykarǵı atı hazoraspband bolıp esaplanadı.(farssha «mıń attı tutıwǵa kúshi jetedi»). Bunnan mıń jıllar burın ataqlı grek táwipleri Jolenus (Galen) hám Diskaridus (Dioskorid) tárepinen ádiraspan jaqsılap tárıyplenip, shıpalı qásiyetleri kórsetip ótilgen edi. Ullı táwip Abu Ali Ibn Sinoda bir qatar awırıwlardı emlewde ádiraspanǵa múrájat etken.

Ádiraspannıń hámme bólimleri hám tuqımı alkoloydlarǵa bay. Ósimlik tamırında 3,3 procentke shekem, paqalinda 3,57 procentke, japıraǵında 4,96 procent hám tuxımında 6,60 procentke shekem alkaloidlar bar ekenligi keltirilgen bolıp, olar jıyındısınan garmolin, garmin, peganel, dezoksipeganin siyaqlı zatlar ajıratıp alınǵan. Bunnan basqa tuqımında kóp muǵdarda may boladı. Ádiraspan juwaz hám basqa usıllar menen may alıw múmkin. Maydıń qásiyeti: miydegi tosıqlardı ashadı, sińirlerdi bekkemleydi. Ádiraspan mayın azıq sıpatında paydalanıwda múmkin. [3].

Abu Ali Ibn Sino ádiraspandı nervler shamallawda, dize súyekler qaqsap awırǵanda awırıw qaldırıwshı dári sıpatında isletgen. Bunıń ushın sol awırǵan jerge adiraspannıń jer ústki bólimin ezip paydalanıwdı usınǵan. Ádiraspannan kúshlı sidik aydawshı sıpatında paydalanǵan. [4].

Xalıq táwipshiliginde ádiraspannıń jer ústki bóliminen tayarlanǵan qaynatpa bezgek, tutqanaq, uyqısızlıq, shamallaw hám basqa keselliklerdi emlewde isletiledi. Bulardan basqa, qıshıma hám basqa teri keselliklerinede payda qıladı. Tuqımınan tayarlanǵan qaynatpa zıǵır tuqımınıń qaynatpası menen birge dem qısıwı keselliklerin emlewde isletiledi. Paydalı másláhátler: 1.Ádiraspannan qaynatpa tayarlaw ushın kastryulkaǵa 250 gramm suw quyıladı hám maydalanǵan adiraspannan bir shay qasıq

salıp, pás otta 5 minut qaynatıladı da, 2 saat tawarǵa orap demlep qoyıladı. Keyin siylede súzip alınıp, kúnine awqattan aldın 3-4 máhál bir as qasıqtan ishiledi. 2.Ádiraspandı tútetip, tútinine 21 ret basdı tutıń, bir baw ádiraspandı bir shelek suwda qaynatıp, siylede súzip alınǵannan keyin, vannaǵa quyıladı, ústine ıssı suw quyıp, tap suw suwıǵanǵa shekem vannada jatsa, bas awırıwǵa em boladı. 3.Bir sıqım ádiraspandı 400 ml suwda pás otta 5 minut qaynatıladı. Sol qaynatpaǵa 10 kún dawamında paxta yamasa tawardı sińirip, awırǵan orınǵa súrtip turılsa, dize hám súyeklerdiń qaqsap awırıwına em boladı. 4.Ádiraspan tútetseńiz, jayıńızdıń hawası tazalanadı, mikrob hám infekciyalarǵa qıran keledi. Ádiraspandı túyip, xananıń múyeshleri hám polına sewip qoılsa, hár qıylı nasekomalar bul hanadanǵa jolamaydi, barlari qashıp ketedi.

Juwmaqlap aytqanda Sońǵı jılları Ádiraspan ósimligine bolǵan talap jıldan jılǵa kóbeyip baratırǵanlıǵın esapqa alsaq, bul ósimliktiń tarqalıw arealı kemeyip baratır, sebebi ádiraspan ósip, jetilisip vegetaciya dáwirin tolıq ótep bolmay atırıp insaniyat tárepinen julıp alınap atır. Sonıń menen birge hár qıylı sharwa mallarınıń ayaq astında qalıp nabıt bolıp atır. Bul óz gezeginde ádiraspan ósimliginiń joq bolıwına alıp keliwi múmkin. Sonıń ushın dárilik ósimliklerdi ulıwma ósimlikler dúnyasın qorǵawdı elede kúsheytiw ósimlik qorların har jılı kemeyip barıwına jol qoymaw islerin alıp barıw zárúr boladı.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Даулетмуратов С. Ресурсы лекарственных растений Каракалпакии и их охрана. Нукус.: «Каракалпакстан», 1991
2. Sh.M. Mirziyoev Yangi O’zbekiston gazetasi № 73 (595), 2022-y.13aprel
3. Б.Ё.Тўхтаев, Т.Х.Махкамов, А.А.Тўлаганов, А.И.Маматкаримов. Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом ашёсини тайёрлаш бўйича Йўриқнома Тошкент - 2015
4. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari. 1-tom

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “QIZIL KITOBI”GA KIRITILGAN QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATIDA UCHRASHADIGAN SUTEMIZUVCHI HAYVONLAR

Matrasulov G‘.J., Kurbanova G.S.

Qoraqalpoq davlat universiteti, QADBR. Nukus shahri, Qoraqalpog‘iston

g.matrasulov@mail.ru

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (QADBR) Amudaryo quyi oqimining shimoliy qismida, Orol dengizining sobiq sohili janubi-sharqida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Beruniy va Amudaryo tumanlari hududida joylashgan. Rezervatning umumiy maydoni 68717,8 gektarga teng. Bu O‘rta Osiyodagi eng yirik tabiiy to‘qaylardan biri bo‘lib, u global nuqtai nazardan yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turgan noyob ekotizim hisoblanadi. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati 2021 yil 16 sentyabr kuni YUNESKOning «Inson va biosfera» dasturi doirasida butunjahon biosfera qo‘riqxonalari tarmog‘iga kiritildi.

Rezervat hududi o‘simliklar va hayvonlarning muhim yashash joyi bo‘lib, O‘rta Osiyoning cho‘l mintaqalarida eng yuqori biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston faunasidagi 107 tur sutemizuvchi hayvonlarning 32 turi O‘zbekiston

Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan [3], shuningdek, Qoraqalpog‘iston faunasidagi 71 tur sutemizuvchi hayvonlarning 18 turi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan bo‘lsa, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) Qizil ro‘yxatiga sutemizuvchilarning 14 turi kiritilgan [1]. Ushbu turlardan hozirgi kunda 38 turi Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hududida yashaydi. Shulardan 4 turi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan bo‘lsa, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) Qizil ro‘yxatiga sutemizuvchilarning 1 turi kiritilgan (1-jadval). Bu hududda shuningdek, yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turgan Buxoro bug‘usining (*Cervus elaphus bactrianus* L, 1900) qo‘riqlanadigan tabiiy yashash joyi hisoblanadi.

Jadval 1.

QADBR hududidagi kamyob va yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan yovvoyi sutemizuvchi hayvonlar turlari

T/r	**Turning ilmiy nomi**	**Turning rus tilidagi nomi**	**Turning davlat tilidagi nomi**
1	*Hemiechinus hypomelas*	Длинноиглый ёж	Qora (uzun) ignali tipratikan
2	*Vormela peregusna*	Перевязка	Olaqo‘zan
3	*Felis caracal*	Каракал	Qoraquloq
4	*Cervus elaphus bactrianus*	Бухарский олень	Buxoro bug‘usi

Uzun ignali tipratikan tana shakli va ko‘rinishi quloqdor tipratikanga o‘xshaydi, ammo uning tanasi kattaroq va tikanlari uzun 40-42 mm bo‘ladi. Tanasining uzunligi 20-25 sm, qulog‘ining balandligi 4,5-5,7 sm, og‘irligi 550-730 g bo‘ladi. Peshonasidan tikansiz oq yo‘l o‘tgan bo‘lib, tanasining pastki tomoni yumshoq jun bilan qoplangan bo‘ladi. Uyalarini tepaliklardagi kovaklarga, eski daryo sohillariga quradi. Qumli erlarda yashaydiganlari uzunligi 1 metrga yaqin in qazishadi[1]. Rezervat xodimlarining tungi reyd vaqtida kamdan-kam uchrashish holatlari aniqlangan. Maqomi: Zaifga yaqin, mozaik tarqalgan, kam sonli tur[3].

Olako‘zan Amudaryo bo‘ylaridagi to‘qaylarning atrofida, kanal va soylarning bo‘ylarida uchraydi. Bu jonivorning asosiy ovqati bo‘lgan kemiruvchilarning kamayib ketishi oqibatida olako‘zan yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelgan. Tanasining yirikligi ondatradan kichikroq, lekin undan uzunroq. Peshonasida uzun tasma singari cho‘zilgan oq-qora dog‘lari bor. Qorin qismi va dumining uchi qoramtir ko‘k rangda. Tanasidagi yozdagi junlari qish oylariga qaraganda kalta, siyrak bo‘ladi. Balog‘atga etganlarining vazni 400-700 g, tanasining uzunligi 30-37 sm oralig‘ida bo‘ladi. Uning harakati ko‘pincha tunda faol bo‘ladi, yumronqoziq va kalamush sichqonlarning uyasiga kirib, ularni tutib oziqlanadi. Bir olako‘zan kuniga kamida 1-2 yumronqoziq yoki 7-8 ta kichik sichqonlarni nobud qilib, eganidan qolganini iniga olib ketib yig‘ib qo‘yib, ozuqa kam paytlari tanovvul qiladi. U xavfli kasallik (vabo) tarqatuvchi kemiruvchilarni yo‘qotadi. Ularning tez ko‘payib ketishiga ta’sir qiladi. Maqomi: Zaif, qisqarib borayotgan; keng, lekin sporadik tarqalgan tabiatan kam sonli tur. 1983 yilda milliy Qizil kitobga kiritilgan, lekin keyingi nashrlardan chiqarib tashlangan. TMXI Qizil ro‘yxatiga kiritilgan[2,3].

Qoraquloq O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalarining shimoliy tumanlarida, chegaradosh hududlarda uchrashganligi, tunda ovozini eshitganlar bo‘yicha ma’lumotlar bor. Qoraquloq o‘lkamizdan butunlay yo‘qolib ketish arafasida

turibdi. Bu hayvonning sonining kamayib ketish sabablari, birinchidan, yashash sharoitining, ayniqsa iste’mol qiluvchi oziq-ovqat mahsulotlarining kamayib ketishi bo‘lsa, ikkinchidan, ovchilarning, cho‘ponlarning va geologlarning ular hayotiga ko‘pgina xavf solishidir. Agar ularni jamoatchiligimiz, ayniqsa, ovchilar ovlashga harakat qilmay muhofaza qilganlarida, bu jonivorlar uzoq o‘lkamizda saqlanib qolishi mumkin. Qoraquloqning asosiy ovqati quyon va har xil kemiruvchilar kalamush, qumsichqon va uy sichqonlari hisoblanadi. Bahor oylarida, ayniqsa kemiruvchilar kamayib ketgan davrda o‘rgimchak va hasharotlar, hattoki ilonlar bilan oziqlanadi. Maqomi: Butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan, mozaik tarqalgan kenja tur[1,2,3].

Buxoro bug‘usi turkiy tilda «Xongul» xonning guli degan ma’noni bildiradi. Bu juda go‘zal hayvon, tabiat go‘zalining yirik erkaklarining bo‘yi 120 sm, og‘irligi 200 kg gacha bo‘ladi. Erkaklarining chiroyli, shoxining uzunligi 90-110 sm bo‘lib, 5 o‘simtadan iborat. Bug‘ular shoxlarini bahorda (mart-aprel) tullash davrida yoppasiga tashlab, o‘rniga yangi shox o‘sib chiqadi. Yangi o‘sib chiqqan shoxi bahmal mato bilan o‘ralgandek bug‘uga ko‘rk berib turadi. Shoxlari ikki yoshidan boshlab o‘sa boshlaydi. Har yili yangi shoxlar o‘sib chiqqanda bir o‘simta paydo bo‘ladi. Eng chiroyli shoxlari etti yoshdan 13-14 yoshga etgan erkaklarida bo‘ladi. Urg‘ochilarida shox bo‘lmaydi. Bug‘ular o‘simlikxo‘r hayvonlar bo‘lib, Qoraqalpog‘iston sharoitida 27 tur o‘simlik bilan oziqlanadi. Ozuqasining asosini ko‘pincha qamish, eriantus, to‘rang‘il, tol, shirinmiya, jiyda, oqbosh va boshqa o‘simliklarning yaprog‘i, novdasi, yosh poyalari tashkil etadi. Bahorda to‘qayda ozuqaviy o‘simliklar kamaygan hollarda ular qumda ko‘karayotgan efemer va efemeroid o‘simliklari bilan oziqlanish uchun migratsiya qiladi. Bug‘ular kech tushishi bilan faolligi boshlanadi. Ularning sutkalik faolligi bahorda soat 16.00 larda boshlansa, havo qizishi bilan yoz oylarida biroz cho‘zilib soat 18.00 larda chiqa boshlaydi. Kunduzi dam oladi, shomdan tonggacha oziqlanadi[1,2].

Ularning yo‘qolib ketishiga to‘qaylarning yo‘qolib ketishi, brakonerlik ta’sirini ko‘rsatgan. Buxoro bug‘usini muhofaza qilish va sonini ko‘paytirish maqsadida o‘lkamizda Qu‘yi Amudaryo davlat Biosfera rezervati tashkil etilgan bo‘lib, er yuzida eng ko‘p buxoro bug‘usi shu joyda saqlanadi. Bu rezervat xodimlarining bug‘ular tirikchiligi bo‘yicha boy tajribaga ega ekanligini ko‘rsatadi. 2007 yili 300 bosh, 2013 yili 700 bosh va 2021 yildagi kuzgi sanoq paytida Biosfera rezervatida bug‘ular soni 1600 boshdan oshganligi aniqlandi. Maqomi: Yo‘q bo‘lib ketayotgan, lokal tarqalgan kenja tur[3].

Umuman olganda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda nafaqat “Qizil Kitob”ga kirgan turlarni balki, yovvoyi tabiatda uchrashadigan har bir turni muhofaza qilish bo‘yicha doimiy nazorat ishlari olib boriladi. Rezervat faunasi uchun xos bo‘lgan turlarni saqlash, ko’payishlari uchun sharoitlar yaratish, turlarni doimiy nazorat qilish har bir xodim uchun zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. Qaraqalpaqstannıń haywanat dúnyası-Nókis:«Qaraqalpaqstan», 2020-jıl, 640 b.

2. Qonısbay Qayıpbekov Qaraqalpaqstan faunası Nukus 2009

3. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, II жилд: Ҳайвонлар; Ж.А. Азимовнинг умумий таҳрири остида. Т.: "Tasvir" нашриёт уйи, 2019.-392 б.

JERGILIKLI HÁM INTRODUKTSIYA ETILGEN ÓSIMLIKLERGE TOPIRAQ-KLIMAT FAKTORLARINIŃ TÁSIRI HÁM BEYIMLESIW ÓZGESHELIKLERI

M.Allamuratov (PhD), D.Arzıbaev magistrant
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Qubla Aral átirapındaǵı klimattıń qurǵaqlasıwı, topıraqtıń shorlanıwı, jer astı suwlarınıń kúshli minerallasıwı hám region ósimlikler dúnyasınıń júdá bay bolmawına baylanıslı ortalıqtıń topıraq-klimat faktorlarınıń ózgeriwlerin jergilikli (aborigen) hám alıp kelip egilgen (introduktsiyalanǵan) ósimliklerge tásirin izertlew úlken teoriyalıq hám ámeliy áhmiyetke iye.

Aral teńiziniń qurǵap ketiwi regiondaǵı suw saqlaǵıshlardıń gidrologiyalıq, gidroximiyalıq, gidrobiologiyalıq hám ósimliklerdi suwǵarıw dárekleriniń rejiminiń tómenlewine alıp keldi. Tábiyiy ortalıqtıń ózgeriwi onıń barlıq komponentleri bolǵan: rel`ef, klimat, suw, topıraq, flora, fauna, adamlardıń jasaw jaǵdaylarına kúshli tásir etti. Ekosistemanıń buzılıwı ósimlikler hám haywanlar dúńyasınıń bir qansha túrleriniń joq bolıp ketiwine, ishimlik hám suwǵarıw suwlarınıń pataslanıwına, topıraqtıń shorlanıwına alıp kelmekte. Ásirese jergilikli hám introduktsiya etilgen ósimlikler úlken ózgerislerge ushıramaqta. Bul regionnıń ekstremal` ekologiyalıq jaǵdayına bir qansha shıdamlı ósimlik túrleri menen formaların tabıwdı talap etpekte [1, 2].

Jergilikli hám introduktsiya etilgen ósimliklerge ortalıqtıń ózgergen topıraq-klimat faktorlarınıń tásirin hám olardıń bul qolaysız tásir etiwlerge beyimlesiwlerin izertlew ayrıqsha teoriyalıq hám praktikalıq qızıǵıwshılıqlar tuwdıradı. Sonlıqtan qurǵaqqa shıdamlı, duz hám suwıqqa tózimli hám introduktsiya etilgen ósimlik túrlerin ózlestiriw, izertlew jáne qorǵaw xalıq xojalıǵı ushın úlken áhmiyetke iye boladı.

Qaraqalpaqstan Respublikasında introduktsiya etilgen ósimlikler ishinde toǵay payda etiwshi, toǵay-meliorativlik áhmiyettegi, manzaralı-kóklemzarlastırıwshılıq, otın ushın hám taǵı basqada paydalı qásiyetlerge iye ósimlik túrleri ushırasadı. Jasıl aǵashlar ózi ósetuǵın jerdiń rejimin jaqsılaydı, hawanıń ıǵallıǵın arttıradı, samaldıń tásir etiw kúshin páseytedi, hawanıń tazalıǵın jaqsılaydı, zıyanlı mikroblardı joq etedi, transporttıń dawısın páseytedi [2, 3].

Orta Aziya shólleri ósimliklerin ıǵallıq jetispewshiligine hám joqarı temperaturaǵa beyimlesiw ózgeshelikleri boyınsha gemikserofitler hám eukserofitler (haqıyqıy kserofitler) dep bóliwge boladı. Gemikserofitler tiykarınan dár`ya alabında ósetuǵın ósimliklerden ibarat. Olardıń tuqımlarınıń kógerip shıǵıwı ushın tómen temperaturanıń bolıwı talap etilmeydi. Mısalı, torańǵıllardıń, tallardın, jıńǵıllardıń tuqımları pisiwden keyin jazda kógeredi. Jiydeniń tuqımınıń kógeriwi ushın suwıqtıń tásiri shárt emes.

Dár`ya alabları (suwalmaları) toǵay ósimlikleri, ásirese aǵash-puta túrleri uzaq ósiwge iye. Olarda geyde ósiwdiń 3 tolqını (volna) bayqaladı, bul tiykarınan tropikalıq hám subtropikalıq zonalar ósimlikleri ushın tán qásiyet. Birqansha alab ósimlikleri, mısalı jıńǵıllar tropikalıq hám subtropikalıq ósimlikler sıyaqlı jıl dawamında 2-3 mártebe gúlleydi [1, 3].

Torańǵıl, jiyde, tal hám basqa da dár`ya alabları ósimlik túrleri qattı suwıqlarǵa tómen shıdaydı. Olardıń búrtiklerin hám gúllerin báhárgi kesh suwıqlar urıp ketedi.

Olar geyde gúzgi suwıqlar menen úziliske tússe de subtropikalıq túrler sıyaqlı uzaq vegetatsiya dáwiri menen ajıraladı. Bul qubılıstı botanika baǵlarında jaqsı kóriwge boladı.

Nókis qalası sharayatında japıraqların birinshi bolıp uzaq shıǵıs ósimlikleri túsiredi. Mısalı, ginnala klenı yamasa amur lipası japıraqların gúzgi túsiriwdi ele hawa temperaturası birqansha joqarı bolsa da sentyabr`dińekinshi on kúnliginen baslaydı hám onı sentyabr`dińayaǵında tamamlaydı. Odan keyin japıraqlardıń túsiwi Arqa Amerika hám Evropa ósimliklerinde baslanadı. Ol japıraqlardıń gúzgi sarǵayıwı normal` ótken waqıtlarında bolıp ótedi. Biraq Orta Aziyanıń dár`ya alabı toǵaylarınıń aǵash-puta ósimliklerinde japıraqlardıń túsiwi kóbinese gúzgi suwıqlardan keyin baslanadı. Geyde gúzgi suwıqlar birqansha keshikken jılları tallar hám torańǵıllar japıraqları gúzgi normal` sarǵayıwdı ózlestiredi. Jiyde bolsa qısqa jasıl japıraqları menen ketedi, olardı kúshli suwıqlardan keyin túsiredi. Bunda tek shaqalarınıń ushı zıyanlanıwı múmkin [4].

Eukserofitler (haqıyqıy kserofitler) mısalı, seksewil hám qoyan súyekler geyde suwıqlardan úzliske tússe de uzaq (8-10 ay) vegetatsiyalıq dáwirge iye. Budan basqa seksewil, qandım, qoyan súyek hám birqansha basqa da Orta Aziya shóllerinińaǵash-puta ósimlikleri kóbirek suwıqlardan tiykarınan gúzgi hám erte báhárdegi suwıqlardan zıyanlanadı. Geyde olardıń nálleri báhárdegi keshki suwıqlardan óledi [2].

Solay etip, shól ósimlikleri túrleri barlıq waqıtta vegetatsiyalıq dáwirge jaylasa bermeydi. Sonlıqtan olardı birqansha jıllı klimat jaǵdayında payda bolǵan degen juwmaqqa keliwge boladı.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Жоллыбеков Б.Ж. и др. Изменение продолжительности жизни деревьев и кустарников в связи с ухудшением мелиоративного состояния почв Нукусского Ботанического сада. Вестник ККОАНРУз., 1996. №1. С.56-62.
2. Кабулов С.К. Приспособление растений к дефициту влаги. Ташкент. ФАН, 1981.
3. Отенов Т.О., Гроховатский И.А., Отенова Ф.Т. Влияние изменившихся почвенно-климатических факторов среды на интродуцированные растения в условиях Южного Приаралья. Мат.докл. X-межд.симп. «Эколого-популяционный анализ полезных растений: интродукция, воспроизводство, использование». Россия, Сыктывкар, 2008. 145-147 с.
4. Otenov T.O., Otenova F.T., Xamitova A.J. Toǵaylardıń Orta Aziya hám Qaraqalpaqstanda tarqalıwı. «Ilim hám tálim tárbiyanıń áhmiyetli máseleleri» atamasındaǵı respublikalıq ilimiy teoriyalıq hám ámeliy konferentsiya materialları. Nókis, 2016. 83-85 b.

GEWILDİŃ (*CAPPARIS SPINOSA* L.) DÀRİLİK HÀM AZIQ-AWQAT QÁSİYETİ HAQQINDA

J.Usnatdinov., A.B.Ajiev

Biologiya qániygeligi 2-kurs student, Botanika, ekologiya hám onı oqıtıw metodikası kafedrası dotsenti

Gewil (*Capparis spinosa* L.) - (ózbekshe atı - kovul - kavar, qaraqalpaqsha Gewil dep júritiledi), Gewil tárizliler (Capparaceae) tuqımlasına kiredi. Bul tuqimlastiń 350 den artiq túri jer júziniń jilli jerli aymaqlarında tarqalǵan.

Ózbekistanda tuqımlastıń tıykarǵı toparı Gewil (capparis) esaplanadı. Onıń tikenli Gewil (*Capparis spinosa*) dep atalatuǵın túri chól, adır hám taw zonalarında, kóller jaǵasında, dıywallarda, egisliklerde ósedi [1].

Gewil kóp jıllı puta ósimlik bolıp, jer bawırlap ósedi. Ol jaqtılıqtı jaqsı kóredi, quyashli jerlerde ósedi [2]. Bul ósimliktiń japıraqları domalaq izbe-iz yamasa qarama-qarsı jaylasqan, ápiwayı, ayırım túrlerinde quramalı. Gúlleri aq yamasa sarǵısh qızıl reńli, aktinomorf. Miywesi kóp tuqımlı jemisli miywe [1]. Gewil may-iyul aylarında gúlleydi, miywesi iyul avgust aylarında pisedi (súwret 1).


A


B

1 súwret. Gewildiń sırtqı kórinisi hám miywesı
A-gúllep turǵan gewil, B-miywesiniń pisiw basqıshları

Gewl ósimligi úlken áhmiyetke iye bolip, ol júdá paydalı ósimliklerden sanaladı. Aziq-awqat sipatinda da hám dárilik retinde de qollanıladı. Bul ósimlik kóbinese tatımlıq tayarlaw ushın ósiriledi [6]. Gewldiń quramında insan organizmine kerekli bolǵan hár túrli vitaminler kóplep ushrasadı.

Vitaminler aktiv zatlar, olar organizmde zat almasıwın basqarıp turıwda, sonıń menen birge qabıl qılınǵan azıqlıq zatlardı ańsat hám tez sińirwinde áhmiyetli ról oynaydı [4].

Respublikamızdıń kópshilik rayonlarında pisip jetilgen gewil miywelerin palız eginleri sıyaqlı kóplep qabıl etiledi. Onıń ǵumsha hám miywelerin endi kógerip shiqqan putaqların duzlap, tatımlıq retinde isletiliwi múmkin. Duzlanǵan gewil ǵumshaların ótkir tatımlıq retinde túrli taǵamlarǵa paydalanıw múmkin [3].

Gewil organizmnıń as pisiriw protsessin jaqsılaw menen birge qan tamırlarınıń awırıwlarınan saqlaydı.

Gewildiń insan organizmine tàsiri haqqında pikirler túrlishe. Olar qádim zamanlardan házirgi kúnge shekem medicinada túrli keselliklerge dawa retinde qollanılatuǵın bolsada, qádimgi táwipler gewildi ko'p qabil etilse, asqazanǵa záxárli ekenligin aytıp ótken.

Abu Ali ibn Sino hár túrlı kesellikler menen kesellenbew ushın kóbirek palız eginleri hám túrli ósimlik ónimleri qabil qiliwdi aytıp ótken hám júzlegen keselliklerdi ósimliklerden tayarlanǵan dáriler menen dawalaǵan edi [5].

Gewildiń miywesiniń quramında glyukozid, 12% qant zati, pektin kislotasi, ashshi zatlar, mineral duzlar jáne kóp muǵdarda 56% C vitamini, provitamin R, tuqımında bolsa 36% may boladı. Onıń tamırında bolsa kapparidin alkaloidi bar [4].

Miywelerinde efir mayi, monosaxaridler, disaxaridler, gemitsellyuloza hám shiyki maydı beretuǵın glyukozid bar. Gúller hám urıqlarda rutin, quercetin, vitamin C, saponinlar hám boyawlar tabılǵan. Tuxımlar qurıtılıw múmkin bolǵan yarım qurıtılǵan maylı, may hám organikalıq kislotalarǵa bay (K.Z. Zakirov hám basqalar, 1936 ; K. Z. Zakirov, R. Xudaybergenov, 1972) [2].

Adam organizmine C vitamini jetispese karbon suwlardıń tarqalıwı hám as sińiriliwi jamanlasadı, ol jaǵdayda cinga keselligi baslanadı. R vitamini mayda qan tamırlardıń diywalların bekkemleydi hám qalqan tárizli bezdiń iskerligin jaqsılaydı.

Paydalanilǵan ádebiyatlar

1. Мустафаев С.М. Ботаника (анатомия, морфология, систематика). Тошкент «Узбекистон», 2002.
2. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана. Издательство «ФАН», УзССР. Ташкент-1978.
3. Хожиматов Қ. Ўзбекистоннинг зиравор ўсимликлари. Тошкент УзССР «ФАН». 1982.
4. Хожиматов Қ. Ўзбекистоннинг витаминли ўсимликлари. ЎзССР. «ФАН» нашриёти. Тошкент-1973.
5. Хайдаров Қ., Хожиматов Қ. Ўзбекистон ўсимликлари. Тошкент «Ўқитувчи», 1992.
6. Vikipediya: ÓzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kovul

HASHAROTLAR (INSCTA) SINFINING UMUMIY QISQACHA TASNIFI

G.I.Matmuratova
Ajinyoz nomidagi NDPI stajyor-tatqiqotchisi

Entomologiya – hasharotlar to`g`risidagi fan (grekcha «entomon» – hasharot, «logos» – ilm, fan). Hasharotlar sistematika bo`yicha bo`g`imoyoqli jonivorlar (Arthropoda) tipiga,traxeya orqali nafas oluvchilar (Tracheata) kenja tipiga va hasharotlar (Insecta) sinfiga kiradi. Bu tipga hasharotlardan tashqari o`rgimchaksimonlar (Arachnida sinfi, Acari – kanalar turkumi) hamda ko`p oyoqlilar (Myriapoda sinfi) va qisqichbaqalar (Crustacea sinfi) ham kiradi. Entomologiya XVIII asrda jamiyat va ilm taraqqiyoti natijasida zoologiya fanidan mustaqil bo`lib ajralib chiqib, keyinchalik o`z navbatida bir qator kenja amaliy fanlarga bo`linib ketdi. Bular jumlasiga umumiy, qishloq ho`jaligi,o`rmon, tibbiyot va veterinariya entomologiyasi kiradi.(4-3 bet)

Hasharotlar tuzilaishi Hasharotlarning tanasi bosh, ko`krak va qorin bo`limidan tashkil topgan . Bosh akron va 4 bo`g`imdan ko`kragi 3 bo`g`imdan, qorin bo`limi 6-11 bo`g`im va telesondan iborat.

Bosh qismining bo`g`imlari biriga qo`shilib ketgan bo`lib, umumiy xitin kutikula bilan qoplangan.Boshi harakatchan ko`krakdan ingichka bo`yin orqali ajiralib turadi.Boshining oldingi uchi oski tomonidan og`zi joylashgan. Boshining ikki yonida bir jufit murakkab ko`zlari ularning o`rtasida ba`zan bir necha mayda oddiy ko`zchalari yakka-yakka bo`lib joylashgan. Boshida 4 juft o`simtalar bo`ladi. bularning birinchi antenalari ya`ni mo`ylovlar akron bilan bog`liq.Mo`ylovlar xilma-xil tuzilgan,shakliga ko`ra qilsimon, ipsimon, taroqsimon patsimon tizzasimon to`g`nog`ichsimon bo`ladi. Birinchi tana bo`g`imi hasharotlarda to`liq induksiyaga uchiragan.Qolgan uch juft o`simtalar esa 2,3,4-tana bo`g`imlarga tegishli.

Bu o`simtalar og`iz teshigi atrofida joylashib,og`iz apparatlarini hosil qiladi.Hasharotlarning og`iz organlari oziq xili oziqlanish usliga muvofiq har xil tuzilgan bo`lishi mumkin. Og`iz organlarining kemiruvchi, kemiruvchi-so`ruvchi, so`ruvchi, sanchib so`ruvchi va boshqa hillari mavjud [1.332]

Suvaraklar, chigirtkalar,qo’ng’izlar, kapalaklarning qurtlari va boshqa hashoratlar uchun xos bo’lgan kemiruvchi og’iz organ eng qadimiy ya’ni birlamchi xisoblanadi. Chunki quruqlikda paydo bo’lgan qadimgi hashoratllar dastlab birmuncha qattiq organic qoldiqlar – detritlar bilan oziqlangan; keyinchalik ular yirtqichlik va o’simlik to’qimalari bilan oziqlanishga o’tishgan. Buning uchun oziqni ushlab turish va uni kemirish zarur bo’lgan. Suyuq oziq (qon, o’simlik nektari va shirasi, chiriyotgan suyuq organik qoldiqlar) bilan oziqlanish butunlay boshqa tipdagi og’iz organlarining kelib chiqishiga olib kelgan. Kemiruvchi og’iz organining barcha qismlari to’lq bo’lishi, ko’poyoqlilar og’iz apparati bilan o’xshashligi va nihoyat hamma hashoratlar lichinkalari uchun xos ekanligi uning kelib chiqishi birlamchi ekanligidan dalolat beradi [1.332-333]

Qishloq xo’jaligi ekinlari va oziq-ovqat mahsulotlari zararkunandalari. Hashoratlar orasida tirik o’simlik to’qimalari bilan oziqlanuvchi turlari ko’pchilikni tashkil qiladi. Ulardan bir qancha turlari qulay sharoitda tez ko’payib ketib, qishloq xo’jalik ekinlari va bog’larga katta ziyon yetkazadi. Hashoratlar o’simliklarnig turli organlariga ziyon keltirishi mumkin. Ulardan bir xillari o’simlik yoki ularning organlarini kemirib yoki ularni teshib zarar keltirsa, boshqalari o’simlik to’qimalari ichiga kirib olib, har xil bo’rtmalar hosil qiladi. Hashoratlar ishlab chiqaradigan sekretlr tasirida paydo bo’ladigan bunday bo’rtmalar o’simliklarning ildizi, mevasi, bargi va boshqa organlarida uchratish mumkin. Hashoratlar tasirida o’simlik boshqa kasalliklarga chidamsiz bo’lib qoladi, ularning hosildorligi kamayib ketadi va ko’pincha qurib qoladi. [1. 375] Skelet muskullari, ayniqsa, qanotlarni harakatga keltiruvchi muskullar juda tez, ya’ni sekundiga 1000 martagacha qisqarich xususiyatiga ega. Bu xususiyat muskullarning bitta nerv impulsiga javoban bir necha marta qisqarishi tufayli oshadi. [2.337]

Adabiyotlar

1.O.Mavlonov. SH.Xurramov. X.Eshova “Umurtqasizlar Zoologiyasi”(2006)
2. O.Mavlonov. SH.Xurramov. Z.Norboev “Umurtqasizlar Zoologiyasi”(2002)
3. O.Mavlonov. SH.Xurramov “Umurtqasizlar Zoologiyasi”(1998)
4.Sh.T. Xo`jaev, E.A.Xolmurodov “Entomologiya qishloq xo`jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari” (Toshkent-2014)

CARABIDAE QO`NG`IZLARI – O`SIMLIKLARNING TABIIY BIOLOGIK QO`RIQChILARI VA ZARARKUNANDALARI.

Eshmuratov A.Ya.
A`jiniyoz nomidagi NMPİ « Zoologiya, odam morfofizologiyasi
va uni o'qitish metodikasi» kafedrasi assistenti.

Qo`ng`izlar biologiyasi va tur tarkibini o`rganish ularning tabiatdagi rolini baholashda, qishloq xo`jaligi o`simliklari zararkunandalariga qarshi kurashishda, biologik metodni qo`llanishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi va iqtisodiy samarali hisoblanadi.

Qo`ng`izlarning turlari va vakillari barcha biotsenozlarda ko`p sonda bo`lishi bilan ommaviy zararkunandalarga qarshi kurashishda samarali bo`lishini ta`minlaydi va ularning foydalilik koeffitsientini keskin oshiradi.

O`zbekistonda zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashishda *Carabidae* yirtqich qo`ng`izlari *Calosoma, Carabus, Pterostichus, Scarites, Bembidion, Broscus, Cicindela, Lebia* avlodi vakillari katta ahamiyatga ega.

Ko`pchilik yirqich qo`ng`izlar kechalari ov qiladi, ular kunduzi toshlar, o`simlik qoldiqlari va boshqa narsalar tagiga bekinib olishadi. *Carabidae* yirtqich qo`ng`izlarining oziqlanishini laboratoriya sharoitlari va tabiatda kuzatish shuni ko`rsatadiki, *Cicindela, Calosoma, Scarites, Pterostichus* avlodi turlari ancha faol va ko`p sonli yirtqichlardan hisoblanadi.

Cicindela littoralis F. – O`zbekistonda keng tarqalgan turlardan biri bo`lib, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan. Bu tur yer, ayniqsa suv yuzasida uchrab, yorug`likka yaxshi uchib keladi. Asosan, o`rgimchaksimon va mayda hasharotlar bilan oziqlanadi.

Dala va laboratoriya kuzatishlariga ko`ra *Cicindela* avlodi boshqa vakillari *C.obilquefasciata* va *C.fisheri* ham yirtqich hayot kechirib, tabiatda katta ahamiyatga ega. Bular oziqlanish tarzi bo`yicha kunduzgi faol hisoblanib, asosan hasharotlar bilan oziqlanishi ko`rsatib o`tilgan. Ayniqsa ikkinchi tur daryolar sohillarida uchrab, mayda hasharotlar bilan oziqlanadi. Ikkala tur ham suvga yaqin bo`lgan hududlarda hayot kechirib, o`rgimchaklar, mayda qo`ng`izlar, chumolilar, to`g`riqanotlilar, pardaqanotlilar, ikkiqanotlilar, chirildoqlar, kanalar va boshqalarning lichinkalari bilan oziqlanadi.

Calosoma deserticola Sem. g`o`za, beda, sabzavot, poliz ekinlari dalalarida va mevali bog`larda uchraydi. Uning lichinkalari va imagolari asosan tangaqanotlilar bilan oziqlanadi. Ayniqsa kapalaklarning qurtlari va qo`g`irchoqlarining kushandasi hisoblanadi. *C.deserticola*ning oziqlanish jatumanini o`rganish bo`yicha olib borilgan tajribalardan ma`lum bo`lishicha, u g`o`zaning zarakunanda kapalaklarini ko`proq iste`mol qilgan. Bir sutka davomida 1 ta tur, 2-3 ta g`o`za kapalagini va 1-2 ta g`umbaklarini iste`mol qilgani kuzatilgan.

Calosoma auropunctatum dzungaricum Gebl ham asosan tangaqanotlilar bilan oziqlanadi. Bu tur vakillari laboratoriya sharoitlarida g`o`za, karam kapalaklarini, olma mevaxorini va boshqa zararli hasharotlarning qurtlari va g`umbaklarini iste`mol qilishi aniqlangan. Bir kunda 1 ta qo`ng`iz 2 - 3 ta qurtlarni yoki g`o`za kapalaklarining g`umbaklarini nobud qilishi qayd etilgan.

Shuni ta`kidlash joizki, *Calosoma* avlodi vakillari O`zbekistonda g`o`zaning jiddiy zararkunandalarini yo`q qiluvchi yirtqichlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, *Calosoma* avlodi turlari o`zlarining yirtqich hayot tarzini kechirishi bois g`o`za va boshqa qishloq xo`jaligi ekinlarining jiddiy zararkunandalariga ko`p miqdorda qiron keltirib, o`simliklarni tabiiy biologik himoya qilishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qo’ng’izlarni orasida shu bilan birga fitofaglar ham mavjud bo’lib, ular qishloq xo’jaliq ekinlarini jiddiy zararkunandalari hisoblanadi. Bular *Zabrus. Amara, Harpalus, Chilotomus, Ditomus, Carterus, Anisodactylus, Machozetus, Harpalini* avlodlari vakillaridir.

Ulardan boshoqli ekinlar jiddiy zararkunandalari bo’lmish don qo’ng’izlari *Zabrus (Z.tenebriooides, Z.spinipes, Z.morio, Z.trinil* va boshqalar) hammasidan ko’ra koproq ahamiyat kasb etadi. Don qo’ng’izoqlari lishinkalari boshoqdoshlarni nihollari bilan oziqlanib, natiyjada ekinni nobud bo’lishiga olib keladi. Oddiy don qo’g’izlari Ukraina, Moldovo, Kavkaz, Povoljie, O’rta Osiyoni ayrim tumanlarida, Armeniyada va boshqalar cho’l zonalari boshoqli ekinlariga o’ta katta zarar keltiradi (Smedov, 1951; Yablokov – Xnzoriyan, 1963). Don qo’ng’izlaridan ayrimlari,

masalan, *Zarbus spinipes* ekinlarni nisbatan kuchliroq zararlashga qodirdir (Kryajeva, 1962),

O'zbekiston sharoitida don qo'ng'izlari (*Z.morio Men*.) Qasqadaryo viloyatida bug'doyni jiddiy zararlaydi (Alimardjanov, 1972), ayniqsa lalmikor ekinlarni kuchli zararlaydi.

Zig'ir, garmdori va boshqalarni jiddiy zararkunandalari sifatida *Harpalus amotor, H.amplicollis, H.psittaceus, H.tardus, H.smaragdinus* lar, boshoqli ekinlar zararkunandalri sifatida esa *Amara aenea, A.apricaria, A.aulika* lar ko'rsatiladi.

Bembidion, Calathus, Pterostichus, Diachrous larni ayrim turlari ko'pchilik madaniy ekinlarni zararkunandalari sifatida ma'lumdir (Shtakelberg, 1932; Dubrovskiy, 1951). *Aisodactylus signatus Pz.* lishinkalarini zararlantirishi haqida Rostov oblastidan ma'lumotlar mavjud. Ular makkajo'qori va savzobat nihollarni zararlaydi. 6 ta *A.signatus* lishinkasi 1 m^2 da makkajo'xorini 15% niholi zararlangan (Ponamarenko, 1969).

Kovrak nihollari va urug'larini jiddiy zararkunandalari cho'l zonalarida iyrik qo'ng'izlar – Machozetus lehmanni hisoblanadi. Bul tur Janubiy – G'arbiy Qizilqum da va Turkmanistonni janibiy tumanlarida keng tarqalgan.

Zabrus morio Men.Ajerbaydjan va O'zbekiston pasttekisliklari va tog' oldilarida uchraydi. Lalmikor ekinlar zararkunandasi hisoblanib ancha zarar keltiradi (Kryajevoy, 1962; Krijanovskiy, 1974). Bizni ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda Jizzax vioyati tog' oldilarida bug'doy, suli, arpa kabi o'suvchi boshoqli o'simiklarni nihollarini zararlantirdi.

Amara similata Gyii. Qo'ng'izlar pishib etilmagan urug'larni, ayniqsa g'unchalarni, karamdoshlar va boshoqli o'simliklarni b'og'im va poyasini, gohida karam va xashaki sholg'om urug'larini yeb ancha zararlantiradi (Krijanovskiy, 1974).

Anisodastylus pseudoaeneus Dej. Fitofag. O'zbekistonda bedani zararkunandasi sifatida ma'lum (Inoyatova, 1961). Bizni kuzatishlarimiz bo'yicha, Qoraqalpog'iston sharoitida beda dalalarida ommaviy tarzda uchraydi. Biz beda nihollarini zararlanishini kuzatdik. Qo'ng'izlar shu kabi yong'oq va boshqalar tuganaklari va nihollarini ham zararlantiradi (Krjanivskiy, 1974).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Krıjanovskiy O.L.1974.Novıe i maloizvestnıe vidı roda Curtonotus Steph. (Coleoptera, Carabidae) iz Sredney Aziy.Entomol.obzor.,Sh:176-193.

2.Krıjanovskiy O.L.1974.Nasekomıe i kleshi-vrediteli sel`skoxozyaystvennıx kul`tur. Carabidae-jujelitsı, t.P.Jestokokrılıe. L., İzd-vo «Nauka».

3.Ponomarenko A.V. 1969. Jujelitsı Anisodactylus signatus (Coleoptera, Carabidae)- vreditel kukuruzı v Rostovskoy oblasti. «Zool.jurn.» t. XI.USh. vıp.1. s. 143-145.

INSULIN MOLEKULASINING TUZILISHI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

[1]Amaniyazov I.P. [2]Bag'ibekov Q.P. [3]Nurnazarov S.V.

Botanika, ekologiya uni oqitish metodikasi kafedrasi oqituvchisi

Biologiya oqitish metodikasi 3-kurs talabalari

islambekamaniyazov@gmail.com

Insulin (lotin.insula- orolcha)- hayvon va odamning oqsil tabiatli gormoni. Me'da osti bezining langergans orolchalarida ishlab chiqariladi.1922- yilning yanvar oyida kanadalik olim Frederik Bantin tarixda birinchi marta qandli diabetga

chalingan 14 yoshli o’spirinning hayotni insulin ineksiyasi bilan saqlab qoldi. 1923-yilda XX asrning biokimyo va tibbiyot sohasidagi birinchi katta yutug’ini e'tirof etgan holda, Bantin va Makleodga nobel mukofoti berildi. Bestning xizmatlari esa e'tiborga olinmadi. Bantin nobel mukofotining yarmini o’z ixtiyori bilan Bestga topshiradi. Bu ishlar davomi XXI-asrda jadal rivojlanadi. Insulin bu - oshqozon osti bezi langergans orolchalarining beta hujayralarida hosil bo’lgan peptid gormoni. Insulin ikkita peptid zanjiridan iborat bo’lib, ular A- zanjir va B- zanjir deb nomlanadi. A va B zanjirlari ikkita disulfid ko’prigi bilan o’zaro bog’langan A zanjiri ichida joylashgan. Insulining aminokislotalar ketma-ketligi turlar orasida turlicha bo’lishiga qaramay, molekulaning bazi segmentlari yuqori darajada saqlanib qolgan, shu qatorda A zanjirining ikkala uchi va B zanjirining C- terminal qoldiqlari bo’lgan uchta disulfid bog’lanishining holatida boladi. Aminokislotalar ketma-ketligidagi bu o’xshashliklar har xil turdagi organizmlarga insulinning uch o’lchovli tuzilishi juda o’xshash bo’lishiga olib keladi va bir tur insulin boshqa turda juda o’xshash biologik faollikka ega[1].

Insulin molekulari B zanjirlarning C uchlari orasidagi vodorod bog’lanishidan kelib chiqqan holda eritmada dimerlarni hosil qiladi. Insulin aminokislotalar tartibi birinchi bo’lib aniqlangan oqsil moddadir. Insulinning tuzilishi hayvonlarning har xil turlari orasida turlisha. Ammo, aslida bu hayvonlar orasida ko’p jihatdan o’xshash bo’lgan oqsil zanjiri. Biologik faol bo’lgan normal insulin monomerik yoki bitta molekula sifatida mavjud. Unda ikkita uzun aminokislota zanjiri yoki polipeptid zanjiri mavjud. Zanjirlar 21ta aminokislotali A zanjir va 30ta aminokislotali B zanjirdir. Ikki disulfid ko’prigi (qoldiqlar A7-B7 va A20-B19) zanjirlarni kovalent ravishda bog’laydi va A zanjirda ichki disulfid ko’prigi mavjud(qoldiqlar A6 – A11).Ushbu bo’ginlar insulinning barcha sutemizuvchilar shaklida o’xshashdir[1]

Inson insulini tuzilishi va funktsiyasi jihatidan sigir yoki cho’chqa insulin bilan eng yaqin. Sigir insulini odamdan atigi uchta aminokislota qoldig’ida, bitta cho’chqa insulinida farq qiladi. Bazi bir umurtqasiz hayvonlar va hatto baliqlardan olinadigan insulin odamlarda klinik jihatdan foydali bo’lishi mumkin, chunki ular bir nechta o’xshashliklarga ega[2].

Insulin glyukoza, kraxmal va boshqa oziq-ovqatlarni kundalik hayot uchun zarur bo’lgan energiyaga aylantirish uchun zarur bo’lgan gormondir. Insulin hujayralarga glyukozani yoqilg’i uchun ishlatishga imkon beradi va langergans orollaridagi beta hujayralar tomonidan ajralib chiqadi. Insulin- bu metabolizm va yutilgan ozuqa moddalari ayniqsa glyukozadan energiya foydalanish uchun muhim bo’lgan gormon. Insulin bir nechta keng tasirga ega, shu jumladan bu jigar, mushak va yog to’qimalarining hujayralarini qondan glyukozani olib, uni jigar va mushaklarda saqlanishi mumkin bo’lgan glikogen aylantiradi. Insulin bo’lmasa yoki insulin kam bo’lgan sharoitda glyukoza tana hujayralari tomonidan qabul qilinmaydi va organizm yog’ni energiya manbai sifatida ishlata boshlaydi. Langergans orollarda insulin gormoni ishlab chiqarish kamayganligi sababli qandli diabet kasalligi olib keladi[2,3].

Diabetes mellitus-bu glyukozani qabul qilish buzilishi bilan bog’liq bo’lgan va insulin gormonining mutloq yoki nisbiy(nishon hujayralari bilan o’zaro tasirining buzilishi) natijasida rivojlanayotgan endokrin kasalliklar guruhi, natijasida giperglikemiya – qon glyukozasining doimiy o’sishi. Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti malumotlariga ko’ra, dunyo bo’ylab 400 millionga yaqin odam diabetdan

aziyat chekmoqda. Agar samarali choralar ko'rilmasa, unda 25 yildan keyin har oltinchi odam ushbu kasallikdan aziyat chekadi, XXI- asrning o'rtalariga kelib esa- har soniyada. Epidemiologik malumotlarga ko'ra, O'zbekistonda qandli diabet kasaligi 5 foizni tashkil qiladi. Ammo bugungi kunda respublikada 2 milionga mingga yaqin qandli diabet bilan kasallanganlar dispanserda ro'yxatga olingan. Birinchi turdagi diabetning barcha holatlarining 5-10% ni tashkil qiladi, ko'pincha bolalik yoki o'spirinlik davrida rivojlanadi. Ushbu turdagi diabet vaqti o'tishi bilan tez o'sib boradigan alomatlarning erta paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Yagona davolash usuli – bemorning metabolizmini normallashtirish uchun umr bo'yi insulin yuborish. Davolashsiz 1-toifa diabet tez o'sib boradi va diabetik kardiomiopatiya, qon tomir, buyrak etishmovchiligi, diabetik retinopatiya, diabetik oyoq yaralari ketoasidoz va diabetik koma kabi og'ir asoratlarga olib keladi, bu esa bemorning nogironligi yoki o'limiga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2016- yilgi malumotlariga ko'ra O'zbekiston aholisining 8,7% diabet kasalligidan aziyat chekmoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab 400 million nafardan ziyod qandli diabet xastaligiga chalingan bemor bor(JSST statistikasi) Tahlillarga ko'ra, ushbu ko'rsatkish 2030-yilga 550 milliondan oshishi mumkin[4].

Qandli diabetga chalinganlar soni eng ko'p bo'lgan davlatlar reytingida(2019) quyidagilar mavjud:

1. Hindiston taxminan 51 million ko'proq
2. Xitoy 44 million
3. Amerika qo'shma shtatlari 27 million
4. Rossiya federatsiyasi 10 million
5. Braziliya 8 million

Kasallikning tasirchan foizi AQSHda topilgan. Bu mamlakatda, aholining taxminan 21% diabetdan aziyat chekmoqda. Ammo bizning mamlakatimizda statistika kamroq- 8,7% tashkil etadi. Insulin turli xil hayvonlardan olinadi va turli xil preparatlarda mavjud. Tijorat insulin preparatlari bir necha jihatdan farq qiladi, shu jumladan ular olinadigan hayvon turlarining farqlari, ularning tozaligi, konsentratsiyasi va eruvchanligi va ularning biologik tasirining boshlanish vaqti va davomiyligi[3,4].

Hozirgi kunda tibbiy amaliyotda uch turdagi insulin qo'llaniladi.(1-jadval)

- tasirning tez boshlanishi bilan qisqa muddatli;
- harakatning o'rtasha davomiyligi;
- tasirning sekin namoyon bo'lishi bilan uzoq muddatli;

Jadval 1. Tijorat insulin preparatlarining xususiyatlari

Insulin turi	Sinonimlari	Kengaytma	Konserbant	Bufer/tuzlari	Turlar	Misollar(savdo nomlari)
Qisqa tasirli	Oddiy eriydi	Yoq	Metilparaben m-krezol fenol	NaCI glitserin Na(H) PO4 asetat Na	Odam,cho'chqa Buqa	Aktrapid-NM, Xumulin-R, Aktrapid, Aktrapid-MC ińektsiya uchun insulin(SSSR,endi ishlab chiqarilmaydi)
НПХ (NPH)	Izofan	protamin	m-krezol fenol	glitserin Na(H) PO4	Odam,cho'chqa Buqa	Protafan-NM Xumulin-R Protafan-MC ińektsiya uchun

						insulin(SSSR, endi ishlab chiqarilmaydi)
Ip(ленте)	Insulin-sink-suspeniziya (aralashma)	sink	Metilparaben	NaCI Asetat Na	Odam,cho'chqa Buqa	Monotard-HM Xumulin-sink monotard-MC Ленте-MC Ленте
Ultra lenta(ip)	Insulin-sink-suspeniziya (kristall)	sink	Metilparaben	NaCI Asetat Na	Odam,cho'chqa Buqa	Ультраленте Ультратард

Insulin boshqa tana tizimlarini ham boshqaradi va tana hujayralari tomonidan aminokislotalarni qabul qilishni tartibga soladi.

Hozirga qadar mamlakatimizda oqsil va peptid dori-darmonlarining rekombinant shakllarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan, shu sababli ularning natijalarini ishlab chiqarishga yanada tatbiq etish uchun sohadagi ishlar katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari P. Mirhamidova, A.H. Vahobov, Q. Davronov, G.S. Tursunboyeva "ILM ZIYO" Toshkent-2014.

2. Vecchio I., Tornali C., Bragazzi N.L., Martini M. The Discovery of insulin: An important Milestone in the History of Medicine. Front. Endocrinol. 2018;9:613. doi:10.3389\fendo. 2018.00613.

3. Lewis G.F., Brubaker P.L. The discovery of insulin revisited: Lessons for the modern era. J. Clin. Investing. 2021;131:e142239. doi: 10.1172JC142239.

4. https:\\uz.diabetesentity.com

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ШИРИН МАККАЖЎХОРИ ЕТИШТИРИШ

Санаев С.Т., ТошДАУ Самарқанд филиали

Сапарниязов И.А., Бектурсинов А.Б., Нукус давлат педагогика институти

Ўзбекистонда ҳозирги кунгача илмий тадқиқотчилар ва олимлар томонидан ширин маккажўхори нав ва дурагайларини биологик хусусиятлари, маҳаллий шароитга мослиги, янги навларини яратиш, уруғчилиги, экиш усули, муддатлари ва схемалари юқори ҳосил олиш технологиялари борасида илмий ишлар олиб борилган ва тавсиялар берилган. Лекин шу пайтгача ширин маккажўхорининг нав ва дурагайларини Қорақалпоғистоннинг тупроқ иқлим шароитида ўстиришга мослигини баҳолашга, нав ва дурагайларни танлаш ва етиштириш технологияси асосий элементларини ишлаб чиқишга эътибор қаратилмаган.

Шунинг учун Қорақалпоғистон тупроқлари шароитида ширин маккажўхорининг нав ва дурагайларин сабзавот экини сифатида кенг майдонларда ўстириб, юқори, сифатли ҳосил етиштириш технологиясининг муҳим элементларини ишлаб чиқиш ва тавсиялар тайёрлаш ҳамда ишлаб чиқаришга жорий этиш мақсадга мувофиқ саналади.

Қорақалпоғистон Республикаси Амударё тумани тупроқ иқлими шароитида олиб борилган тажрибаларда ширин маккажўхорининг навлар тўплами ҳамда дурагайлари модул ўсимликларида фенологик кузатувлар ва биометрик ўлчовлар ўтказилди (2017-2019 йй).

Ширин маккажўхори навларининг биометрик кўрсаткичлари тажрибада ўрганилиб, ўсимлик бўйи 124,8 см дан 217,5 см гача қайд этилди. Энг баланд бўйли ўсимликлар SPV 1022, Can. Pedro 2inta, Leonard's Early, Свит стар F_1, Baron F_1, Hybrid F_1 (178,5 - 217,5 см), каби нав ва дурагайларида қайд этилди. Энг паст бўйли ўсимликлар Spirit F_1 (124,8 см), дурагайида кўзатилди. Ўсимликда биринчи сўтанинг жойлашиш баландлиги нав ва дурагайлараро 16,4 - 60,0 см бўлганлиги, тупланганлик эса 2,8 донагача бўлганлиги қайд этилди. Ўрганилган нав ва дурагайлардаа бош поядаги баргларнинг сони 9,1 донадан 13,4 донагача ўзгарди. Ўсимликларда бир тупда сўталарнинг ҳосил бўлиши бўйича кўрсаткичи 1,7-3,2 донани ташкил этди. Основа 209 нави SoyanF_1 , Spirit F_1 дурагайлари нисбатан кам сўтали бўлди. Ўрганилган нав ва дурагайларда сўтасиз ўсимликлар кузатилмади.

Тажрибаларимизда ширин маккажўхори нав ва дурагайларининг маҳсулдорлик кўрсаткичлари ўрганилиб, бунда товар сўталар чиқими, битта сўтанинг ўртача вазни, сўтадаги дон қаторлар сони, бир қатордаги донлар сони, биринчи ва иккинчи сўта ўзунлиги, диаметри бўйича бир биридан фарқланди.

Ўрганилган ширин маккажўхори нав ва дурагайларида бир дона сўтанинг ўртача вазни 123,8 - 243,0 граммгача қайд этилди. Сўталарнинг ўртача вазни бўйича энг юқори кўрсаткич Замин, Can.Pedro 2inta, SPV 1022, Sentinel F_1, Megaton F_1 (237,2-243,0 грамм) навида кузатилди. Сўтадаги дон қаторлар сони ўрганилганда нав ва дурагайлараро 13,2 - 16,9 қаторгача ўзгарди. Сўтадаги энг кўп дон қаторлар сони Эврика, Замин, Can.Pedro 2inta, Sentinel F_1, Megaton F_1 кабиларда қайд этилди. Нав ва дурагайлараро сўтанинг бир қаторидаги донлар сони 23,6 - 42,4 донагача бўлди. Ширин маккажўхори сўтасининг товарлик кўрсаткичларидан бири саналган сўта ўзунлиги таҳлил қилинганда биринчи сўта ўзунлиги нав ва дурагайлараро 19,8 – 25,5 см гача, иккинчи сўтада ўртача 16,5 – 23,4 см гача етганлиги қайд этилди. Ушбу кўрсаткич бўйича Замин, SPV 1022, Can.Pedro 2inta, Sentinel F_1, Megaton F_1 Hybrid F_1 кабилар устунлик қилди. Тажрибада ўрганилган нав ва дурагайлар ичида энг юқори маҳсулдорлик кўрсаткичлари Замин, Can.Pedro 2inta, Sentinel F_1 , Megaton F_1 нав дурагайида қайд этилди.

Тажрибада ширин маккажўхоридан гектаридан олинган силос масса ҳосилдорлиги ҳам ўрганилди, бунда нав ва дурагайлар аро кук поя ҳосилдорлиги - гектаридан 28,1 - 30,7 тоннани ташкил этди. Ширин маккажўхори нав ва дурагайларини экиб ўстиришнинг асосий мақсади сабзавот сўталари етиштириш бўлганлиги боис, бир гектардан сабзавот сўтаси чиқими 4,1 - 10,6 тоннагача ўзгарди. Ўрганилган нав ва дурагайлар ичида энг юқори ҳосилдорлик (8,6-10,6т/га) кўрсаткичлари Эврика, Замин, SPV 1022, Can.Pedro 2inta, Sentinel F_1,Megaton F_1 Хоней Бонтам F_1, кабиларда қайд этилди.

Тажрибаларимиз натижалари таҳлили шуни кўрсатдики ширин маккажўхори нав ва дурагайларини сабзавот экини сифатида эртаги муддатда ўстириб, гектаридан 8,6-10,6 тонна сабзавот сўтаси ҳамда шу билан бир қаторда чорва моллари учун гектаридан 28,1 - 30,7 тонна ва зиёд ширали озуқа яъни кўк поя ҳосили олиш мумкин экан. Бу эса ширин маккажўхори нав ва дурагайларини эртаги муддатда сабзавот сифатида ўстириб 28,0 -36, млн сўм даромадни, 100,0-122,6 % дан ортиқ рентабеллик даражасини таъминлар экан.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Отабоева Ҳ ва бошқалар. Ўсимликшунослик.Т., 2000, 90-97 бетлар
2. Санаев С.Т., Остонақулов Т.Э. Сабзавот (ширин) маккажўхори нав ва дурагайлар коллекциясини ўрганиш ҳамда бойитиш. ПСУЕАЙТИ Халқаро илмий-амалий конференция, Т., 2018, 18-20 бетлар.
3. Sanaev S.T., Saparniyazov I.A. - The influence of mulching methods on the cultivation, development of productivity of varieties and hybrids of vegetable(sweet) corn in the conditions of Karakalpakistan. Қорақалпоғистонда фан ва таълим. 100-108 бетлар. №3(11) Нукус 2019 й.
4. Санаев С.Т., Сапарниязов. И.А - Рост, развитие и урожайность овощной (сахарной) кукурузы в условиях республики Каракалпакстан при выращивании в разные сроки The way of science. International scientific journal. – Russia - 2019. № 8 (66). P. 51-52. (Global Impact Factor, IF – 0,543).

ШИРИН МАККАЖЎХОРИНИ САБЗАВОТ СИФАТИДА ЕТИШТИРИШ

Санаев С.Т., ТошДАУ Самарқанд филиали
Сапарниязов И.А., Бектурсинов А.Б., Нукус давлат педагогика институти

Дунё олимларининг таъкидлашича, ширин маккажўхорини сабзавот экини деб ҳисоблаш тўғри талқиндир, чунки озиқ-овқат экинлари гуруҳида алоҳида ўрин тутмоқда. Сабзавот маккажўхори бугунга келиб, сабзавот экинлари орасида аҳамияти жиҳатидан ўз ўрнига эга. Шу сабабли Қорақалпоғистон шароитида ширин маккажўхори етиштириш муҳим аҳамият касб этади. Қорақалпоғистон тупроқ иқлим шароитига мослигини ўрганиш мақсадида сабзавот (ширин) маккажўхорининг нав ва дурагайлари уруғларини униб чиқиши, ўсув даврининг давомийлиги, ўсимлик бўйи, биометрик кўрсаткичларини ўрганиш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари қуйидагича бўлди. Сабзавот (ширин) маккажўхорининг ўрганилган 8 та нав ҳамда 8 та дурагайлари уруғларини экиш амалга оширилгандан сўнг экиш ўниб чиқиш даврининг давомийлиги 7-9 кунни ташкил этди. Нав ва дурагайлар аро нисбатан эрта униб чиқиш Замин, Can. Pedro 2 Inta, Berys навларида, Свит стар F_1, Sentinel F_1дурагайларида экилганнинг 7 кунида қайд этилди.Нисбатан кечроқ униб чиқиш SPV 1022, Leonard's Early, Хоней Бонтам F_1, Спирит F_1, Мегатон F_1, Baron F_1, Soyan F_1, Hybrid F_1 кабиларда 9 кунда қайд этилди.Униб чиқиш ва баргларнинг(7-барг) шаклланиши 13-16 кунни, баргларнинг(7-барг) шаклланиши ва рўваклаш 23-33 кунни, рўваклашдан гуллашгача бўлган давр 4-6 кунни, рўвакнинг гуллаши ва сўталаш даври 9-15 кунни ташкил этди. Ушбу ўрганилган нав ва дурагайларда сўталаш-сут пишиш 13-18 кунни, сут пишиш-мум пишиш даври 4-8 кун давом этди.

Нав ва дурагайларда ривожланиш фазаларининг давомийлигини ўрганиш шуни кўрсатдики, униб чиқишдан, сут-мум пишишгача бўлган ўсув даври 75-85 кунни ташкил қилди. Эрта ҳосил етилиши Baron F_1, Свит стар F_1, Спирит F_1, Soyan F_1дурагайларда қайд этилиб, ўсув даври 73-77 кун, нисбатан эртароқ ҳосилни етилиши Замин,Sentinel F_1, SPV 1022, Основа 209, Hybrid F_1, Can Pedro 2 Inta, Clx3349ys clause каби нав ва дурагайларда 79-81 кунда қайд этилди.

Тажрибада бир туп ўсимлик илдизининг ҳўл ва қуруқ массаси ҳамда ҳажми таҳлил қилинганда, энг юқори илдиз тизими массаси ҳосил бўлиши Can Pedro 2 Inta, Leonard's Early, Hybrid F_1 нав ва дурагайларида қайд этилиб, 415,8-285,0 г , нисбатан оғир вазнли ва ҳажмли илдиз тизими ҳосил қилиш Clx3349ys clause, SPV 1022, Замин навларида кузатилиб 186,8-220,8 г, энг кам илдиз тизими массасини ҳосил қилиш Soyan F_1, Спирит F_1 дурагайлари ҳамда Основа 209 навига тўғри келиб, 106,1-119,7 г ни ташкил қилди. Тажриба ўсимликларида мос равишда ер устки вазнининг ўзгариши қайд этилиб, энг кўп поя ва барг вазни Can Pedro 2 Inta, Leonard's Early, Hybrid F_1 дурагайларида кузатилиб, ҳўл поя вазни 501,6-560,1 г ни, ҳўл барг вазни эса 95,6-130,5 г ни ташкил этди. Барглар ҳосил бўлиши ҳам тадқиқот қилинганда, бир тупда ўсимликларда шаклланган ён поялар ҳисобига кўп баргҳосил қилган ўсимликлардаги барг сони 22,6-29,7 донани ташкил қилди. Энг кам барг Спирит F_1, Soyan F_1, Хоней Бонтам F_1,Основа каби нав ва дурагайлари қайд этилиб, 9,1-9,6 донадан иборат бўлди. Нисбатан кўп барг ҳосил қилиш Baron F_1, Can Pedro 2 Inta, Эврика, Свит стар F_1, Мегатон F_1 нав ва дурагайларида қайд этилди.

Асосий поядаги шаклланган биринчи сўтанинг жойлашиш баландлиги бўйича таққосланганда назорат Эврика навида 30,3 см ни, Berys, SPV 1022 ва Clx3349ys clause навларида 35,4-41,7 см ни, Замин ҳамда Основа 209 навида 21,3-23,6 см ни ташкил этди. Дастлабки сўтанинг бош пояда энг баланд 55,0-60,0 см жойлашиши Can Pedro 2 Inta ва Leonard's Early навларида кузатилди.

Тажрибада ўрганилган Sentinel F_1, Hybrid F_1 ва Свит стар F_1 дурагайларида биринчи сўтанинг бош пояда жойлашиш баландлиги 32,2-41,1 см да, Soyan F_1, Мегатон F_1, Хоней Бонтам F_1, Baron F_1 ларда 25,0-28,9 см да, энг паст Спирит F_1да 16,4 см да қайд этилди.

Сабзавот (ширин) маккажўхори нав ва дурагайларининг маҳсулдорлик ҳамда ҳосилдорлик кўрсаткичларини таҳлил қилиниб бу кўрсаткичлар ўзаро солиштирилганда бир биридан фарқланди.Товар сўталар чиқими ҳар бир тупдан 1,2 донадан 2,3 донагача шаклланди. Энг кўп товар сўталар Замин, Leonard's Early навларида ҳамда Sentinel F_1 ва Мегатон F_1 дурагайларида қайд этилиб, 2,1-2,3 донани ташкил қилди. Энг кам сўтали нав ва дурагайлар Основа 209 нави (1,3 дона) ва Спирит F_1 (1,2 дона), SoyanF_1дурагай (1,5 дона) лари бўлди. Ўртачабир дона сўталарнингвазнинингюқорилиги (237,2-244,0 г) бўйичаSPV 1022, Clx3349ysclause, Can. Pedro 2 Inta, Замин навлари устунлик қилди. Ўрганилган дурагайларда эса юқори сўта вазнининг ҳосил қилиши (220,8-240,2 г), Свит стар F_1, Хоней Бонтам F_1, Hybrid F_1 ва Sentinel F_1 дурагайларида қайд этилди. Тажрибада ўрганилган бошқа дурагайларда эса сўта вазни 154,9-178,6 г гача бўлди.

Тажрибада ўрганилган Замин нави ўзининг тезпишарлиги (79 кун), кўп сўталилиги (3,2 дона), товар сўталар чиқими (2,1 дона) ва товарбоплиги ҳамда ҳосилдорлиги (10,0 т/га) бўйича ажралиб турди.Ўрганилган Мегатон F_1 дурагайи ҳам сифат кўрсаткичлари ва ҳосилдорлиги жиҳатидан энг юқори натижа бериб бошқа дурагайларга нисбатан кўп сўтали (2,9 дона), товарбоп

сўталар чиқими (2,3 дона) ва товарбоплиги ҳамда юқори ҳосилдорлиги (10,6 т/га) билан фарқланди.

Адабиётлар / References

1. Сапарниязов. И.А -Қорақалпоғистон шароитида ширин маккажўхори ўстириш технологияси. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi –5/2021

2. Санаев С.Т., Сапарниязов. И.А - Рост, развитие и урожайность овощной (сахарной) кукурузы в условиях республики Каракалпакстан при выращивании в разные сроки The way of science. International scientific journal. – Russia - 2019. № 8 (66). P. 51-52. (Global Impact Factor, IF – 0,543).

УДК 595.70

ЎЗБЕКИСТОН ФАУНАСИДАГИ МУҲОФАЗАГА МУҲТОЖ ТЎЛИҚСИЗ ЎЗГАРИШ БИЛАН РИВОЖЛАНУВЧИ (INSECTA- HEMIMETABOLA) ҲАШАРОТЛАРИНИНГ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИ

М.Ж. Медетов [1], Қ.Д.Реймов[2].,А.Юсупова[3], Абдуллаева[2]

ЎзР ФА Зоология институти, Нукус Давлат педагогика институти[2], Қорақалпоқ давлат университети[3]

Мамлакатимизда ҳайвонот оламини инвентаризациядан ўтказиш – бу, мураккаб ва қийин тадқиқотларни талаб қилувчи йўналиш бўлиб, чуқур ва ҳар томонлама батафсил илмий билимлар ва шунингдек, сезиларли даражадаги сарф–ҳаражатларни талаб қилади. Бундан ташқари, бу кўринишдаги инвентаризация фавқулотда даражада кенг кўламда фойдаланилади – яъни, биология фанларининг турли хил соҳаларида, қишлоқ хўжалигида, табиатни муҳофаза қилиш, таълим, эстетик тарбия, маданият, музей ишлари ва бошқа кўпгина соҳаларда фойдаланилади. Бошқа томондан, қисқача рўйхатларни (каталоглар, кадастрлар) даврий равишда тузиб бориш систематика ва фаунистиканинг ривожланишининг зарурий таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Ҳар қандай ҳайвонот оламининг миллий кадастри давлат миқёсида ҳайвонот олами ҳақидаги билимларга эга бўлишнинг маълум бир аниқ тарихий босқичини ифодалайди ва биологик заҳиралар ва ёввойи турларнинг яшаш муҳитида амалга ошувчи ўзгаришларни мониторинг қилишнинг йўналтирилувчи нуқтаси сифатида хизмат қилади [1,4]. Ўзбекистоннинг биринчи Қизил китоби 1983 йилда нашр қилинган бўлиб, унга умуртқали ҳайвонларнинг 63 тури киритилган эди. Қизил китоб даврий нашрдир ва ҳар ўн йилда камида бир марта янгиланиб чоп этилиши лозим. Ушбу муддат ичида Қизил китобга киритилган турларнинг мақоми ўзгариши, олиб борилган махсус муҳофаза чоралари туфайли баъзи турларнинг сони тикланиши ва аксинча, бошқа турларнинг сони яшаш шароитининг ёмонлашуви ҳамда бошқа таъсир этувчи омиллар ҳисобига қисқаришда давом этиши ва ҳаттоки бошқа тоифага ўтиши мумкин. Фанлар академиясининг саъй-ҳаракатлари билан юртимиз фаунасининг шу кундаги аҳволини ва кўпгина ҳайвонлар турлари мақомини баҳолашга имкон берувчи жуда бой маълумотлардан 2016 йилда нашр қилинган Қизил китобга сут эмизувчиларнинг 30 тури (кенжа турлар билан 32), қушларнинг 48 тури (кенжа турлар билан 51), судралиб юрувчиларнинг 16 тури, балиқларнинг 17 тури (кенжа турлар билан 18), ҳалқасимон чувалчангларнинг 3 тури, моллюскаларнинг 14 тури (кенжа турлар билан 15) ва бўғимоёқлиларнинг 60

тури (кенжа турлар билан 61) киритилган. Мазкур нашрда қўлланилган турларнинг табиатда йўқ бўлиб кетиш хавфи тоифаларининг миллий тизими ТМХИ нинг (2001) миқдорий мезонлардан фойдаланилган замонавий 3.1-талқинига асосланган [2,3].

Тадқиқотлар 2014-2022 йиллар давомида Қизил китобга киритилган турлар тарқалган харитадаги нуқталарда ва Ўзбекистон республикасининг барча табиий ва антропоген ҳудудларида олиб борилди. Тадқиқотларда Кириченко (1951), Kerzhner (1962), Асанова ва Искаков (1977) ҳамда Голуб (2012) ларнинг усуллари асосида олиб борилди.

Ўзбекистон республикаси Қизил китобига ҳашаротларнинг турли туркумларига кирадиган 59 тури киритилган. Улардан фақат 7 та тури тўлиқсиз метаморфоз билан ривожланувчилар. Албатда чала ўзгарувчилар кўпчилиги фитофаглар ва ўзининг ҳаётий шаклини бир йилда тугатувчилар саналади. Ҳашаротларнинг тўлиқсиз метаморфоз билан ривожланувчилар бўлими вакилларида ривожланиши ва ўзгариши учта фазада – тухум, личинка ва имаголар бўлади. Hemimetabola лар тўртта бош туркумга бўлинади [1,2,5,6]. Булардан Anormogomphus kiritshenkoi Bartenev, 1913, *Saga pedo* (Pallas, 1771), Porphyrophora cynodontis (Archangelskaja, 1935), *Porphyrophora sophorae* (Archangelskaja, 1935), *Reduvius fedtschchenkianus* Oshanin, 1871, *Stenolemus bogdanovi* Oshanin, 1896, *Cercinthus lehmanni* Kolenati, 1891 кабилар киритилган. Бу турлардан фақат *Reduvius fedtschchenkianus* мониторингда аниқланилди. Мазкур турнинг замонавий холати олдинги даврга солиштирганда ортгани кўзга ташланади ва буни мақоминини 2 (VU:R) дан 3 (NT) га ўзгартиришни тавсия қилинади. *Reduvius fedtschchenkianus* тарқалиш ареали мос равишда шимоли - ғарб томон N $44^{o}38'48.52''$, E $58^{o}15'20.99''$ координатгача кенгайганлиги аниқланилди.

Ўрганилган Ўзбекистон Қизил китобига киритилган турлардан Anormogomphus kiritshenkoi ни 2 (VU:R) дан 1 (EN) га, *Saga pedo* (Pallas.1771) ни 1 (EN) дан 1 (CR), Porphyrophora cynodontis (Archangelskaja, 1935) ва *Porphyrophora sophorae* (Archangelskaja, 1935) ларни 2(VU:D) дан 1 (EN) га, *Stenolemus bogdanovi* Oshanin, 1896, *Stenolemus bogdanovi* Oshanin, 1896 ҳамда *Cercinthus lehmanni* Kolenati, 1891 турларини 2 (VU:R) дан 1 (EN) маҳомига ўтказиш, *Modicogryllus chivensis* (Tarb., 1930) турнинг изланишлар давомида топилмаганлиги, бу турнинг Ўзбекистон шароитида тарқалганлигини қайта кўриб чиқишни тақоза қилади ва 1(EN) маҳоми билан ҳамда 1- жадвалда келтирилган турлар кўрсатилган мақоми билан Ўзбекистон Республикаси Қизил китобига киритиш учун тавсия қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Холматов Б.Р. Жанубий Ўзбекистон тўғриқанотсимон (Insecta:Orthopteroidea) ҳашаротлари. // Биология фанлари доктори диссертация автореферати (DSc). Ташкент, 2019- 61 с.
2. Медетов М.Ж. Ўзбекистон арид худудларининг тўғриқанотли ҳашаротлари (Insecta: Orthoptera). // Биология фанлари доктори диссертация автореферати (DSc). Ташкент, 2018- 60 с.
3. Насекомые Узбекистана. Под ред. Азимова Д.А. Ташкент, “Фан”, 1993.-320с.
4. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби. Ташкент, “Чинор”, 2019.-392с.

МАЛҲАМЧИ ҚЎНҒИЗЛАР (COLEOPTERA: MELOIDAE) НИНГ ТИББИЁТ ВА ВЕТЕРИНАРИЯДАГИ АҲАМИЯТИ

А. Н. Сейилханова, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети **таянч докторанти.**

А.М.Миратдин қизи, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети магистранти.

М.Ж.Медетов, ЎзР ФА Зоология институти катта илмий ходими, б.ф.д.

m.j.medetov@mail.ru

Малҳамчи қўнғизлар умумий номи уларнинг гемолимфаси инсон териси билан алоқа қилганда пуфакчалар пайдо бўлишига олиб келишидан келиб чиққан. Гемолимфа кўпинча вояга етган қўнғиз терини босганда ёки унга ишқаланганда рефлектор қон кетиши туфайли кўп ажралади. Пуфакчалар кўпинча тунги вақтларда кўча ёритиш чироқларитомонидан жалб қилинган етук қўнғизларнинг бўйин ва қўлларни чақиши натижасида пайдо бўлади. Агар гемолимфа бармоқлар орасидаги нисбатан юпқа терига тегмаса, етук вакилларининг умумий таъсири камдан-кам ҳолларда пуфакчалар пайдо бўлишига олиб келади. Агар пуфакчалар катта бўлмаса, биринчи ёрдамдан ташқари бошқа даволанишни талаб қилмайди. Суратдаги одамнинг пуфакчалари, ноқулайлик туғдирган бўлса ҳам, лекин оғриқ келтириб чиқармади. Кўп ўтмай бўйиндаги пуфакчалар ўз-ўзидан йўқолди. Бу ноқулай бўлса-да, ўз-ўзидан ҳеч қандай тиббий ёрдамсиз йўқолди. Пуфакчаларнинг қўзғатувчиси кантаридин, ҳидсиз терпен (экзо-1,2- *цис*- диметил-3,6-эпоксигексагидрофталевый ангидрид) бўлиб, бошқа жойларда фақат Oedemeridae оиласига мансуб қўнғизларда учрайди (Arnett 2008). Кантаридин ёки кантаридлар (вояга етган қўнғизлар танасининг қуритилган, майдаланган кукуни) бир вақтлар тиббиёт ва ветеринарияда, биринчи навбатда, везикант ва қўзғатувчи сифатида кенг қўлланилган. Оғиз орқали ёки тери орқали қабул қилинган кантаридин сутемизувчилар учун жуда заҳарлидир. Унинг афродизиак хусусиятларига бағишланган кенгадабиётлар ҳамда тасодифий ва қасддан одамларни заҳарлаши ҳақидаги кўплаб хабарлар мавжуд. Кантаридин манбаи *Lytta vesicatoria* (Linnaeus) баъзан евроосиё испан пашшаси деб аталади. Бироқ, бошқа авлодлар, айниқса, *Mylabris* ва *Epicauta* дан кўпроқ фойдаланилган. Вояга етган қўнғизларда (қуруқ масса бўйича) кантаридиннинг қайд қилинган таркиби 1 % дан 5,4 % гачани ташкил этади. Биологик синтези ва вазифалари тўлиқ ўрганилмаган. Кантаридин йиртқичлардан кимёвий ҳимоя қилади, деган фикрлар кенг тарқалган, аммо бунинг учун далиллар жуда кам. Ҳеч бўлмаганда, баъзи турларда урғочилар урчиш пайтида эркаклардан кўп миқдорда кантаридин олади. Ҳар қандай ҳолатда, урғочилар бу материални тухумларга қўлланиладиган қопламага киритади.

Тойланган беда пичанига тушиб қолган малҳамчи қўнғизларни ютиш натижасида қимматбаҳо отларнинг ҳалокатли заҳарланиши ҳолатлари (Kinney et al.2006, Mackay and Wollenman 1981, Schoeb and Panciera 1979), кантаридинтоксикози ва патологиясига қизиқиш уйғотди, бирикмани аниқлаш учун жуда сезгир усулни ишлаб чиқишга олиб келди (Ray et al. 1979). Кенг тарқалган турларда мавжуд бўлган кантаридин миқдори даражаларини, шунингдек, отларга ҳалокатли дозани юбориш учун зарур бўлган

қўнғизларнинг тахминий сонини кўрсатиш учун тадқиқотлар мавжуд (Kinney et al. 2006, Sansome 2002).

Заҳарланишлар малҳамчи қўнғизларнинг бир неча турлари билан боғлиқ. Агар от эгалари бедани пичан манбаи сифатида ишлатса, малҳамчи қўнғизлар потенциал таҳдидли ҳисобланадилар. Малҳамчи қўнғизлар камдан-кам ҳолларда кўп миқдорда заҳарланишнинг аксарияти чигиртка популяциясининг тарқалиши кузатиладиган бедазорлардан келиб чиқади.

Фойдаланган адабиётлар.

1. Abdullah, M. (1965a) Protomeloe argentinensis, a new genus and species of Meloidae (Coleoptera), with remarks on the significance of cantharidin and the phylogeny of the families Pyrochroidae, Anthicidae, Meloidae and Cephaloidae.
2. Аксентьев С.И. 1981. Новые роды и виды нарывников (Coleoptera, Meloidae) из Средней Азии // Энтомологическое обозрение. T.LX. No.4. С.860–864. Аксентьев С.И. 1988. Каталог таксонов родовой группы жесткокрылых семейства Meloidae (Coleoptera) // Энтомологическое обозрение. T.XLVII. No.3. С.569–582.
3. Аксентьев С.И. 1996. 103. Сем. Meloidae — нарывники // Лер П.А. (ред.): Определитель насекомых Дальнего Востока России. Т.3. Ч.3. С.45–56. Бережков Р.П. 1956. Саранчовые Западной Сибири. Томск: Томский госуниверситет. 175 с.
4. Кузин Б.С. 1954. К познанию системы нарывников (Coleoptera, Meloidae, Mylabrini) // Труды Всесоюзного энтомологического общества. Т.44. С.337–379. Логачёв Б.В. 1949. Заметки к фауне жесткокрылых (Coleoptera) Омской и Северо-Казахстанской областей. Омск. С.5-6.
5. Мищенко А.И. 1957. Насекомые — вредители сельскохозяйственных культур Дальнего Востока. Издание 2-е. Хабаровск. 205 с.
6. Мордкович В.Г. 1965. Новый для фауны Тувы вид нарывника (Coleoptera, Meloidae) // Новые и малоизвестные виды фауны Сибири. Новосибирск. С.23–25.
7. Мордкович В.Г., Чернышёв С.Э. 1999. Видовое богатство жуков-нарывников (Coleoptera, Meloidae) в градиенте континентальности Евразии // Известия РАН. Серия биологическая. No.3. С.319–328.
8. Николаев Г.В., Колов С.В. 2005. Жуки-нарывники Казахстана. Алматы: Қазақ университеті. 166 с.

ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ҲАШАРОТЛАРИ ПОПУЛЯЦИЯЛАРИГА САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЧИҚИНДИЛАРИНИНГ АНТРОПОГЕН ОМИЛЛАР СИФАТИДАГИ ТАЪСИРИ

Қ.Д. Реймов *Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти*
А.Я.Ешмуратов *Зоология институти эркин тадқиқотчиси*
А.Қ.Сейтмуратов., Р.Кадиров *Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети ўқитувчиси.*

Инсоният жамияти ўз фаолияти давомида табиий комплексларда ўзгаришларни келтириб чиқаради. Табиий экосистемларнинг йўқолиб кетиши, агро, урбонлашган техноэкосистемаларининг пайдо бўлиши, ўсимликларнинг янги турларининг интродукцияси, табиий ўрмон экосистемаларига мелиорациялаш йўли билан таъсир кўрсатиш, ҳар хил кесиб ташлашлар, ифлослантириш, рекреация, биосферага глобал таъсири - бу охирги 200 йил

давомида асосий муҳит яратувчи омиллар ва тирик организмлар эволюцияси омиллари турига кирувчи антропоген таъсир кўрсатишнинг тўла бўлмаган руйхати.

Ҳашоратларнинг популяцион даражадаги жавоб реакциялари баъзи, биринчи навбатда кимёвий таъсирларга мослашуви бўлади. Ҳашарот ларнинг баъзи кимёвий инсектицидларга бардошли раса ёки микропопуляциясининг пайдо бўлиши азалдан маълум. 1958 йилда ҳашоратларнинг инсонда касаллик қўздирувчиларни ташувчи 27 турида, маданий экинларни зарарловчи ва уруғ омборларида сақланувчи бошқа кўпчилик ҳашоратларда хлорорганик, жумладан фосфорорганик инсектицидларга орттирилган бордошлик аниқланди; бунда ҳашоратлар жуда хилма-хил систематик гурухлар: ўсимлик битига, цикадка, қандала, қўнғизлар, қўшқанотларга, тангақанотларга мансуб бўлди. 1964 йилда энди ҳашорат ва каналарнинг 140 турида ҳар хил инсекцидлар ва акарицидларга бардошдик аниқланди. Синтетик органик инсекцидларга нисбатан бардошли популяцияларнинг шаклланиши 10 – 20 авлод давомида, ноорганик турларига эса 50 – 100 авлод давомида тугалланади.

Сўнги йилларда саноат чиқиндалари, жумладан фтор бирикмалари таъсирига ҳашораттларнинг мослашувининг юзага келиши ҳам кузатилмоқда.

Ҳозирги вақтда хавфли кимёвий жисмлар билан атроф муҳитнинг ифлосланиши кескин кўчайди. XX1 аср га келиб инсоннинг биосферага ва айрим геокомпонентлар (атмосфера, гидросфера, лотосфера, ва тирик организмлар туркумлар)га техноген таъсири катта миқдорга етти. Антропоген чиқиндилар ва сув чиқиндилари йилдан йилга ортиб бормоқда. Шунингдек, уларда анча заҳарли бўлган янги компонентлар юзага келади. Буларнинг ҳаммаси биосферанинг стабиллигининг бузилишига, унинг парчаланишига олиб келади. Ер биосферасининг экологик вазияти глобал инқироз сифтида баҳоланади.

Ҳозирги жамиятда илмий тадқиқотларининг асосий йўналишларидан бири атроф муҳит объектларини инсоннинг бузғунчи фаолиятидан кейин қайта тиклаш ва уларни келгуси авлод учун келажакда сақлаб қолишдан иборатдир. Ушбу вазифаларни ҳал қилиш учун саноат корхоналарининг геокомпонентларга техноген таъсири даражасини тадқиқ қилиш, экологик мониторинг методларини ишлаб чиқиш зарар бўлади.

Саноат ва қишлоқ хўжалиги ҳар хил соҳаларининг корхоналарининг экосистемага техноген таъсирини баҳолашга мўлжалланган кўламли материал ҳозирги вақтқа келиб тўпланиб қолди. Кимё корхоналарининг жойлашиш худудларида атмосфера ҳавосига, тўпроқ, қор қатламига салбий таъсири маълум бўлди, бу эса аҳоли турмуш тарзи ва саломатлик даражасининг ёмонлашишига олиб келади. Оқова сувлар дренажи оқибатида чиқинди сақлаш жойлари районида нитратлар, нитритлар, фосфатлар, сульфатлар, хлоридлар ортади, бу эса дарё сувини маданий турмуш да, саноатда ишлатишга яроқсиз қилиб қўяди. Иссиқлиқ электр станцияларининг чиқиндиларининг тирик организмларга таъсири атмосфера ҳавосининг ҳароратининг ортиши билан кўчаяди. Станцияга яқинлашган сари дарахтнинг зарарланган баргларининг ушрачув частотаси ортади, кадмий ва қўрғошиннинг ёмғир қуртлари ва чигирткалар танасидаги миқдори ортади. Фойдали қозилмалар конларини қайта ишлаш ҳам атроф муҳит ифлосланишига олиб келади. Нефт маҳсулотларини

қозиб олиш жойларида атроф муҳит объектларини кўп йиллик кузатиш тўпроқнинг кимиёвий таркиби, био хилма-хилликнинг ўзаришидан гувоҳлик беради.

Биосфера монитиринги оқибатида реал вақт режимида ёқимсиз экологик таъсирларни қайд қилиш, техноген юкламаларни камайтириш ёки бартараф қилиш тадбирларини ўтказиш, экосистемага критик қайтарилмас вазиятлар юзага келгунга қадар салбий таъсирни чеклаш бўйича тавсияномаларни ишлаб чиқиш мумкин. Антропоген таъсир манбаларини, биосфера аҳволини кузатиш тармоқлари бугунги кунга келиб кенг ёйилган ва бутун планета бўйича тарқалган.

Ҳозирги вақтда атроф муҳитнинг ҳар хил компонентларининг экологик мониторинги системасининг ривожланиш даражалари фарқланади. Шаҳарлар атмосфера ҳавоси сифатини назорат қилиш айниқса такомиллашган система ҳисобланади. «Метеорологик назорат тармоқлари, стационар, йўналишли ва кўчма факл ости кузатиш постларини тузиш тамойиллари, бир марталик синамаларни даврли танлаш, уларнинг лаборатория таҳлили концепцияда қайд қилинган».

Атроф муҳит объектлари сифати ҳақидаги ахборотларни кўпчилик экологик аналитик марказларда қўлланиладиган танлаш ва қайт ишлаш системасы қўл меҳнати асосида ташкил қилинади: синамаларни танлаш, лабораторияга олиб келиш, синамаларни таҳлил қилиш, ҳисобатларни тузиш. Бундай типдаги мониторинг самарали бўлмайди. У экологик объект, айниқса атмосфера ҳавоси каби динамик муҳитнинг сифатини реал вақтда характерлаш имкониним бера олмайди. Шундай қилиб, экологик мониторингнинг комплекс системасини илаб чиқиш ҳозирги жамиятнинг долзарб масаласидир. Улар, атроф муҳит объектларини кузатишдан ташқари экологик вазиятни оператив қайд қилиш ва прогнозлашни, критик вазиятлар туғрисида хабардор қилиш ўтказилади. Олинган сигналлар атроф муҳитга заҳарли моддаларнинг келиб тушишини тартиблаштириш ёки тўсиб қўйиш ҳақида ечим қабул қилиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Мониторинг системасини тузиш бўйича тадқиқотларни замонавий ахборот ва компьютер технологияларын қўллаш билан реал вақт режимида атроф муҳит объектларининг экологик аҳволини кузатиш имконига эга бўлган ҳолда ўтказилади. Масалан, веб-интерфейс бўйича экологик вазиятни бошқариш имконини берувчи мониторингнинг муаллифлик автомат системаси ишлаб чиқилган.

Инсоният ўзининг мавжудлигининг энг эрта даврларидан бошлаб органик оламнинг эволюцияси жараёнида фаол қатнашишини бошлади. Инсон ўзининг хўжалик фаолияти билан атрофидаги табиий муҳитни ўзгартиради. Мазкур муҳитда амалга ошадиган ўзгаришлар биоценоз ҳайвонат оламига фаол таъсир кўрсатади. Инсоннинг ҳайвонот оламига таъсирининг даражаси тарихий тарзда аниқ билинади. Фан ва техниканинг жадал ривожига боғлиқ холда инсоннинг хўжалик фаолиятининг бизнинг атрофимиздаги табиатга таъсири ҳар хил бўлмоқдалар.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Медетов М.Ж. Ўзбекистон арид худудларининг тўғриқанотли ҳашаротлари (Insecta: Orthoptera). // Биология фанлари доктори диссертация автореферати (DSc). Ташкент, 2018- 60 с.

2. Насекомые Узбекистана. Под ред. Азимова Д.А. Ташкент, “Фан”, 1993.-320с.
3. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби. Ташкент, “Чинор”, 2019. -392с.
4. Latchininsky AV, Gapparov FA (1996) Consequences of the drying of the Aral Sea for the locust situation in the region. Se´cheresse 7:109–113 (in French)

ОРОЛ ДЕНГИЗИ ҚУРИШИНИНГ ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ЭНТОМОФАУНАСИГА ТАЪСИРИ

Қ.Д. Реймов Ажиниёз номидаги НукусДПИ доценти
А.Я.Ешмуратов Зоология институти эркин тадқиқотчиси
Б.Д. Гулимбетов НукусДПИ таянч докторанти
А.И.Айтөреев НукусДПИ стажёр ўқитувчиси

Ўтган юз йилликнинг урталаригача жаҳондаги тўртинчи йирик кўл – Орол денгизининг сув баланси ў ёки бу даражада стабил бўлди. Буғланишдан (йилига 58-65 км^3) ва ёғин-сочин (йилига 3-9 км^3) дан йўқотиш оқимсиз Орол денгизини (55-56 км^3) таъминловчи иккита дарё Амударё ва Сирдарёдан сувнинг келиб тушиши билан ўрни тўлтирилди (Глазовский, 1990). XX асрнинг 60 йилларидан бошлаб Амударё ва Сирдарё сувлари қишлоқ хўжалиги эҳтиёжи учун, айниқса чўлдаги пахта ва шоли экинларини суғориш ортиб борувчи жадаллик билан фойдаланила бошлади. 1960-йилгача Амударёнинг умумий оқимидан фақакт 5% и суғориш учун қўлланилган бўлса, суғориладиган майдонларнинг кенгайиши Амударё йиллик сув оқимини 1980 йиллар охирида тўла сарфланишига олиб келди (Micklin, 2007).

Сув ресурсларининг шундай мунтазам бўлмаган бошқариш охир-оқибатда, Орол денгизининг офатли қуришига айланди, натижада ўз майдонининг 70% ини йўқотди ва ёқалиқ чизиғи 80-120 км га чекинди, денгиз туринининг деярли 5 млн га очилиб қолди, у планетадаги энг ёш чўл – Оролқумга айланди [1,2,3,4].

Оролнинг қуриши билан 15-300 минг тонна майда заҳарли чанг ва қумдан иборат ва уларни минглаб километр масофаларга олиб борувчи чангли бўронлар тез-тез бўлиб турди (Micklin, 2007). Иқлимнинг аридлиги ва контитенталлиги ортди ва бунисизҳам ёмғир-сочиннинг жуда кам йиллик миқдори деярли икки маротаба (150 дан 56 мм гача) камайди, июл ойи максимал ҳарорати деярли 5^{o}C га ча ортди, ва январнинг минимал ҳарорати тахминан шунчага камайди [4].

Бундай экологик шароитларнинг ўзгариши регионнинг биохилма-хиллигининг кескин ва салбий таъсир кўрсатди, сут эмизувчиларнинг турлари сони 70 дан 32 гача, қушлар 319 дан 160 гача (жумладан, ин қурувчи турлар (173 дан 38 гача), ўсимликлар сони эса 423 дан 370 гача камайди (Глазовский, 1990, Latchinibskiy, 1996). Орол сувининг шўрлиги 14 дан 140 г/л гача кескин ортди, океанлар суви шўрлигидан уш маротабага ортди, бу эса ихтиофаунаси учун фалокатли бўлиб, Оролдаги болиқларнинг 32 туридан битта туриҳам қолмади.

Амударё ва Сирдарё дельтаси бой экосистемасига дарё оқимининг камайиши, баҳорги сув тошқинларининг камайиши ва ерости сувларининг сатҳининг пасайиши чўлга айланишининг тарқалишига олиб келган ҳолда сезиларли зарар келтирди. Тузларнинг ер устига аккумуляцияси деярли ҳеч нарса ўнмайдиган фазанинг юзага келишига олиб келди. Ноёб тўқай

ўрмонзорларининг майдони бош ва иккинчи даражали сув оқимлари бўйлаб кескин камайди. Дельталарнинг қуриши кўллар майдонини, сув-ботқоқ ўсимликлари ва улар билан боғлиқ қамишзорларининг майдонини сезиларли камайтирди. Бул ўзгаришлар сутэмизувчилар ва қушлар турларининг сонининг кескин камайишига олиб келди (Миклин ва бошқа, 2016).

Дельта текислигининг табиий сувсизланиши кескин камайиши ўсимлик тўдаси структурасининг бузилиши ва ўсимликларнинг жанубий ва дарахт-ўтлоқ турларининг зич ва ўтиб бўлмас жипс қамишзор чакалакларнинг қуриши ва йўқолиб кетиши бошланди. 1974 йилга келиб Жанубий Орол бўйи яйловлари ва пичан ўриш жами 77,7 минг га эгаллади. Тўқай яйловлари сезиларли камайди. Бутоқсиз қизилмиянинг тарқалиш майдони 3,5 минг га ни ташкил қилди. Қамиш чакалакзорлари майдони 1980 йилда 100 минг га деб баҳоланган бўлса, 1981 йилга келиб кескин 22,5 га гача камайди. Текширилаётган худуд тўпроқ қопламасининг 1980-1985 йиллардаги космик суратга олиш бўйича ўзгариши шўрқоқ ерларнинг ривожланишини таъминловчи автоморф тўпроқ ҳосил бўлиш жараёнининг етакчи бўлишидан гувоҳлик беради. Бунда дельтадаги ем-хашак ўсимликларининг турлик бойлиги шартли-табиий даврга нисбатан 44,6% га камайди, қамишзор чакалакзорлар майдони жами фақат 20-30 минг га ни ташкил қилди.

Орол денгизининг антрофоген омиллар билан боғлиқ ҳолда қуриши иқлим ўзгаришига олиб келди, оқибатда кўпчилик ҳашоратларнинг яшаш стацияси баланси издан чиқди. Фауна Қорақолпоғистонда қамиш чакалакзорларига эга бўлган кўпчилик денгизларнинг қуриши ҳисобидан, мезофил турланинг йўқолиб кетиши кетиши ва бу ерга сезиларли ксерофил турларининг кириб келиши йўли орқали устун шаклда шаклланади. Янги ерларни очиш ва денгизнинг қуришидан бу ерда муҳит шароитлари ўзгарди, бу эса инсон томонидан яратилган иккиламчи ценозларда туғри қанотлилар тур таркибига таъсир кўрсатди (Latchininskiy et/ al. 1996, Gapparov et. al 2000).

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Медетов М.Ж. Ўзбекистон арид худудларининг тўғриқанотли ҳашаротлари (Insecta: Orthoptera). // Биология фанлари доктори диссертация автореферати (DSc). Ташкент, 2018- 60 с.
2. Насекомые Узбекистана. Под ред. Азимова Д.А. Ташкент, “Фан”, 1993.-320с.
3. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби. Ташкент, “Чинор”, 2019.-392с.
4. Latchininsky AV, Gapparov FA (1996) Consequences of the drying of the Aral Sea for the locust situation in the region. Se´cheresse 7:109–113 (in French)

ЗАРАРЛИ ЧИГИРТКА ТУХУМ КУЗАЧАЛАРИНИНГ МАЛҲАМЧИ ҚЎНҒИЗЛАР (COLEOPTERA: MELOIDAE) ТАБИИЙ КУШАНДАЛАРИ

Қ.Камалов, Ажиниёз номидаги НукусДПИ эркин тадқиқотчиси.
А. Н. Сейилханова, Бердақ номидаги ҚДУ таянч докторанти.,
Ж. Тилепов эркин тадқиқотчи.,Р.Калимбетова, стажёр тадқиқотчи.

Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида зарарли чигирткалар тарқалиши мумкин бўлган 3 млн гектардан ортиқ ер майдони бор бўлиб, географик тузилишига кўра мавсумий ва барқарор кўллар, туқайлик, бутазар ва чўллар майдонларни қамраб олади. Республикамиз ҳудудида чигирткаларнинг 100 га яқин тури мавжудлиги аниқланган бўлиб, улардан уч тури хавфли деб

саъналади. Улардан тўда ҳосил қилувчи Осиё чигирткаси, Италия пруси ва катта саксовул букри чигирткалари ҳисобланади.

Осиё чигирткалари асосан Республикамизнинг Оролбўйи ҳудудларидаги барқарор ва мавсумий кўллар бўлган Судоче, Хожа қолтиқ, Махпал, Таллиқ, Муйноқ залив, Бузатов, Сарибас, Тигровой хвост, Қарамуш-1, ва Қарамуш-2, Биябай, Майпост, Ақдаря, Жалтирбас, Сексен, Байеке айдин, ва 6-Қарауй кўллари атрофиларидаги қамишзор майдонларида осиё чигирткаларининг табиийй очоқлари бор бўлиб, ушбу кўллар атрофидаги қамишзор майдонларида хар йили осиё чигирткаларининг личинкалари тарқалиш ҳолатлари учраб келмоқда.

Осиё чигирткаси тухумлари кўзачаларини йиғиш ва уларнинг энтомофаглар билан зарарланишини аниқлаш учун тадқиқот ишлари олиб борилди. Чигирткалар тухум қўйган жой ўрганиш давомида, маълум бўлдики, табиий шароитда кўзачаларнинг бир қисми кемирувчи ҳайвонлар ёки қушлар томонидан йўқ қилинар экан. Улар кўзачаларни топиб, ердан ковлаб олиши ва тухумларни еб битириши кузатилди. Топилган 270 та кўзачадан 4.8 фоизи йиртқич ҳайвонлар томонидан йўқ қилинган (2 - жадвал). Оролбўйи ҳудудларидаги Осиё чигирткасининг йиғилган ва ўрганилган жами 270 та кўзачасидан 8973 та ҳаётчан туҳум топилди. Кўзачалар зичлиги - 4,9 шт/м^2.

Чигирткага қарши кимёвий ишлов берилганига қарамай, зараркунандаларнинг қишловдаги захираси сақланиб қолган. Айнан шу ҳудудларда катта миқдорда Осиё чигирткасининг кўзачалари топилди. Текширилган жойларда кўзачаларнинг ўртача зичлиги 1кв/м^2 га 4,9 тани ташкил қилди.

Йиғилган кўзачалар сони аниқланди, паразит билан зарарланган кўзачалар ажратиб олинди. Улар бинокуляр остида кузатилди ва зарарланган тухумлар миқдори аниқланди. Ҳаётчан тухумлар сони 11797 та. Битта кўзачадаги тухумлар сони ўрточа 43.7 тага тенг. Паразитлар билан зарарланган кўзачалар сони 79 та бўлиб, бу 29,2 % ташкил қилди (1 - жадвал).

1 -жадвал

Осиё чигирткаси кўзачаларини энтомофаглар билан зарарланишини таҳлил қилиш натижалари

№.	Йиғилган жой, туман.	Кўзачалар сони, дона					Тирик тухумлар, дона.
		Жами	Ҳайвонлар томонидан зарарланган		Паразитлар томонидан зарарланган		
			дона	%	Дона	%	
1	Судоче, Хожа қолтиқ	75	2		23		3277
2	Қарамуш-1, ва Қарамуш-2	126	8		39		5506
3	Муйноқ залив	12	-		4		524
4	Жалтирбас	57	3		13		2490
ЖАМИ		270	13		79		11797

Тухумларнинг 4,8 фоизи ҳайвонлар томонидан йўқ қилингани ҳам қайд этилди. Шундай қилиб, кўзачаларнинг умумий зарарланганлиги 33,8 % етди.

Шунингдек, Италия пруси кузачаларининг малҳамчи қўнғизлар личинкалари томонидан зарарланиши Кегейли тумани, Баширчиел участкасида олиб борилди. Участка майдони 72000 га. Айнан шу участканинг танланиши шу билан боғлиқки, бу ҳудудда воҳа чигирткаси имаголари зичлиги бошқа участкаларга қараганда кўпроқ бўлганлиги, кимёвий ишлов берилгандан кейин нобуд бўлмаган ва имаго холатигача ривожланган чигирткалар томонидан қўйилган тухум кузачалари ўрганилди. Биринчи тажриба майдони сифатида Дауткўл кўли атрофида танланди. (Координаталар -42°53'43.1"N, 59°21'09.6"E). Бу жойда чигиртка кузачалари зичлиги 10 кв.м да 15 дона кузатилди. Воҳа чигирткаси кузачаси тухумларининг табиий популяциясининг малҳамчи қўнғизлар билан зарарланиши 32,8 % ни ташкил қилди.

Олинган маълумотларга кўра, йиғилган кўзачалардан паразит-энтомофагнинг битта тури топилган ва у *Mylabris* FABRICIUS, 1775 ва *Epicauta* Dejean, 1834 авлоди турлари (Coleoptera: Meloidae) эканлиги аниқланди.

Шундай қилиб, малҳамчи қўнғизлар билан Осиё чигирткасининг зарарланиши 29.2 %, воҳа чигирткалари табиий популяцияси тухумларининг зарарланиши 32,8 % гача эканлиги аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда, барча малҳамчи қўнғизларнинг личинкалари ихтисослашган йиртқичлардир. Meloidae оиласи турларининг личинкалари, зарарли чигиртка тухумлари билан озиқланиб уларни 31.5% гача камайтиради. Шунингдек, яйлов ва маданий экинлар зараркунандаси билан бир қаторда, қўнғизлар заҳри инсонлар ва чорво молларига салбий аҳамиятга эга. Ем ҳашак билан бирга ейилганда малҳамчилар оғир заҳарланиш ва ҳатто чорво молларининг ўлимига сабаб бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Зимин Л.С. Кубышки саранчовых. Морфология, систематика, диагностика и экология.//Определители по фауне СССР, М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1938.-№23.
2. Захваткин А.А., Паразиты кубышек вредных саранчовых Средней Азии. I. Введение. Жуки. // Труды Среднеазиатского института защиты растений 1931. - № 1. - С.1-190.
3. Клюге Н.Ю. Современная систематика насекомых. С.-Петербург, г. Издательство: Лань. 2000. -336 с.
4. Кузин Б.С. 1954. К познанию системы нарывников (Coleoptera, Meloidae, Mylabrini) // Труды Всесоюзного энтомологического общества. Т.44. С.337–379.
5. Насекомые Узбекистана. Под ред. Азимова Д.А. Ташкент, “Фан”, 1993.-320с.
6. Фасулати К.К. Полевое изучение насекомых беспозвоночных. – М . 1971.

ARAL AQ SHABAǴÍ-(ABRAMIS BRAMA ORIENTALIS BERG.) BALIǴÍNÍŃ PARAZITLER FAUNASÍ

E.Q.Sultanov -úlken oqıtıwshı
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Zoologiya, adam morfofiziologiyası hám onı oqıtıw metodikası kafedrası

Aral aq shabaǵı-(Abramis brama orientalis Berg) balıǵı Orta Aziyanıń Aral teńizi, Chu dáryası, túslik Aral aldı suw saqlaǵıshları, Sırdáryanıń joqarı aǵımı qara dáryaǵa shekem Ámiwdáryanıń joqarǵı aǵımına shekem tarqalǵan. Zarafshan hám Qashqadáryalarda ushıraspaǵan (Berg,1949)

S.O.Osmanovtıń (1971) jılǵı maǵlıwmatları boyınsha Aral aq shabaǵı-(Abramis brama orientalis Berg) balıǵı 63 túr parazit anıqlanǵan. Solardıń ishinen eń joqarǵısı trematoda (13), ápiwayılar (15), nematoda (12), lenta tárizli qurtlar (8), rak tárizliler (7) monogenitikalıq sorıwshı qurtlar (6), súlikler hám mollyuskalardan bir túrden esapqa alǵan. Tabılǵan parazitlerdiń ishinen ápiwayılardan (Trypanosoma abramidis, Sryptobia abramidis), 6 túr monogeniyalılar (Doctylogyrus wunderi, D.falcatus, D.zandti, D.auriculatus, Girodactylus parvicopula, Diplozoon paradoxum), Aral aq shabaǵı-(Abramis brama orientalis Berg) balıǵı ushın specifik túr esaplanıp, qalǵanları 55 túri keń xojayın sheńberine iye.

S.O.Osmanov (1971) Aral teńizinen Aral aq shabaǵı-(Abramis brama orientalis Berg), balıǵınan 39 túr parazit, Ámiwdáryadan-35 túr, Sırdar'yadan 30 túr. A. I.Agapova hám A. P. Maksimovalar (1960) Chu dáryasınan 6 túr, Sarısuw hám Jezqazǵan suw saqlaǵıshınan aq shabaq balıǵınan 9 túr parazit esapqa alǵan.

Sońǵı jıllardaǵı bizlerdiń izertlewlerimiz boyınsha Aqshakól kólinen 21 dana Aral aq shabaǵı balıǵı tolıq parazitologiyalıq jarıw usılında tekserildi. Izertlengen balıqlarımızdıń dene uzınlıǵı 16,3-19,2 sm, salmaǵı 121-323 gramm bolıp 9 túrdegi parazit anıqlandı.

Ulıwma 1972-1973 jıllarǵa salıstırǵanda Aral aq shabaǵı-(Abramis brama orientalis Berg) balıǵınıń parazitler túr quram 7 esege azayǵanlıǵı málim boldı. Bul parazitlerdiń ishinen kóbirek gezleskeni Doctylogyrus wunderi hám Diplostomum spathaceim, jaraqatlanıw hám zıyanlanıw intensivligi judá pás. Aral aq shabaǵı (Abramis brama orientalis Berg), balıǵınıń specifik parazit túrlerinen Trypanosoma abramidis, Doctylogyrus wunderi, Diplozoon paradoxum túrleri esapqa alındı. Sonıń menen birge Tuslik Aral aldı bentofagları esaplanǵan Contracaecum squalii al qalǵan 4 túr parazit (T.clavatuv, D.zandti, Gryporhynchus pusillum, Argulus foliaceus) júda az sanda bir-eki danadan ushırastı. Túslik Aral aldı suw basseynlerinde Aral aq shabaǵı-(Abramis brama orientalis Berg), balıǵınıń parazitler túr quramı keskin azayǵanı menen parazitler ushın qolaylı jaǵday tuwılsa kesellik oshaǵı payda bolıwı gúzetiliwi múmkin. Sonıń ushın hárbir túr parazittiń biologiyasın, ekologiyasın úyreniw baslı maqsetimiz esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Быховская-Павловская. Паразиты рыб(руководство по изучению). Л.,1983.
2. Османов С.О. Паразиты рыб Узбекистана. Ташкент,1971,с.269-272.
3. Султанов Е.К. Юсупов О.Ю. Особенности паразитофауны промысловых рыб озера Акчакуль, Вестник ККО АН РУз, 2000,№3,с.8-11.

